

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI
FILOLOGIYA FAKULTETI
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI**

BITIRUVCHI KURS TALABASI
_____ning

**“Yordamchi so‘zlarni umumiy o‘rta va o‘rta maxsus ta’lim tizimida o‘tish
metodikasi”
mavzusidagi**

***5 120 100 – Filologiya va tillarni o‘qitish (o‘zbek tili) yo‘nalishida bakalavr
akadem darajasini olish uchun yozgan***

MALAKAVIY BITIRUV ISHI

(2015-2016- o‘quv yili)

Ilmiy rahbar:

filologiya fanlari nomzodi, dotsent

Buxoro – 2016

Reja:

Ishning umumiy tavsifi

I BOB

O'zbek tilida yordamchi so'zlar, ularning manbalardagi ifodasi

I.1 So'z turkumlari tizimida yordamchi so'zlar

I.2. Umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi

I.3.O'rta maxsus ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi

II bob

Yordamchi so'zlarni o'rta umumta'lim tizimida o'tish metodikasi

II.1. Ko'makchilarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

II.2. Bog'lovchilarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

II.3. Yuklamalarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

III bob

Yordamchi so'zlarni o'rta maxsus ta'lim tizimida o'tish metodikasi

III.1. Ko'makchilarni o'rta maxsus ta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

III.2. Bog'lovchilarni o'rta maxsus ta'lim izimida interfaol usullarda o'tish

III.3. Yuklamalarni o'rta maxsus ta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

Xulosa

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

Ishning umumiy tavsifi

Mavzuning dolzarbligi. Jamiyat, ijtimoiy va ma'naviy hayot singari til ta'limi ham shiddat bilan rivojlanib, takomillashib boratgani barchaga ayon. Yurtboshimiz I.A.Karimov so'zlari bilan aytganda: "...Istiqlol yillarida o'zbek tilining qo'llanish doirasi amalda nihoyatda kengaygani, uni ilmiy asosda rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlar, tilimizning o'ziga xos xususiyatlariga bag'ishlangan ilmiy va ommabop kitoblar, o'quv qo'llanmalari, yangi-yangi lug'atlar ko'plab chop etilayotgani jamiyat tafakkurini yuksaltirishga o'z hissasini qo'shmoqda"[2,86].

Til ta'limida yordamchi so'z va yordamchi qo'shimcha shakllar, aniqrog'i, yordamchi birliklar muayyan bir hodisa sanalib, ona tilini o'qitishda o'ziga xos oringa ega. Chunki nutqimiz boyligi, sayqalligi, silliqligi, muxtasarligi, uslubiy ravonligi bevosita yordamchilar (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama)ga ham bog'liq.

Yordamchi birliklar ona tili ta'limi tizimining barcha bo'g'inlarida o'rganiladi. Umumiy o'rta ta'lim tizimining quyi bosqichida mazkur hadisa haqida dastlabki ma'lumot berilsa, yuqori sinflarda bu hadisa xususida nisbatan kengroq ma'lumot mavjudligiga guvoh bo'lamiz.

Yordamchi so'zlarni turli usullarda o'tish, bu hodisani o'quvchi ongi, shuuriga singdirish, vaziyat talabi bilan hutqiga keng qo'llay olishiga erishish o'qituvchidan yuqori darajadagi mahoratni talab etadi.

Yordamchi birliklarning grammatik tabiati bo'yicha aytilgan fikrlar yetarlicha mavjud. Biroq ularni orgatish, yordamchi so'zlarni o'tish metodikasiga oid tadqiqotlar oz. Bu esa biz tanlagan mavzuning dolzabligini ko'rsatadi.

Mavzuning o'rganilish darajasi. Yuqorida bayon etganimizdek, yordamchi birliklarning grammatik tabiati, lisoniy xususiyatlari bo'yicha aytilgan fikrlar, bular haqidagi tadqiqotlar anchagina[3;7;8;11;14;15;16;17;20;21]. Shu bilan birga, til hodisalarini ta'lim tizimida o'rgatish usullariga qaratilgan o'qituvchilar uchun chiqarilgan metodik qo'llanmalar[5;18;19], maqolalar[26;27;31;32] ham mavjud. Biroq yordamchi birliklarni umumiy va o'rta maxsus ta'lim tizimida o'qitish va

o'rgatishga qaratilgan maxsus tadqiqot amalgam oshirilgan emas. Bizning malakaviy bitiruv ishimiz shu yonalishdagi ishlardan biri sanaladi.

Tadqiqot maqsadi. Umumiy o'rta ta'lim hamda o'rta maxsus ta'lim tizimida yordamchi sozlarni o'tish metodikasiga qaratilgan.

Malakaviy bitiruv ishining vazifalari. Yuqoridagi maqsadni amalga oshirish uchun bir qator vazifalar belgilab olindi:

- o'zbek tilida ko'makchilarning lingvistik tabiatini kuzatish;
- o'zbek tilida bog'lovchilarning tabiatini yoritish;
- o'zbek tilida yuklamalarning lisoniy tabiati va matndagi ma'no imkoniyatlarini o'rganish;
- yordamchi so'zlarni umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklardagi ifodasini kuzatish, ularni o'tish borasida tavsiyalar berish;
- yordamchi so'zlarni o'rta maxsus ta'lim tizimidagi dastur va darsliklardagi ifodasini kuzatish, mazkur birliklarni turli usullarda o'tish borasida tavsiyalar berishdan iborat.

Malakaviy bitiruv ishining yangiligi. Ushbu tadqiqotda yordamchi birliklar tadqiq etildi, ularni o'qitish xususida fikrlar bayon etildi:

- yordamchi birliklarning manbalardagi ifodasi kuzatildi va munosabat bildirildi;
- yordamchi birliklarni umumiy o'rta ta'lim tizimida berilishi, ularni turli usullarda o'tish bo'yicha fikrlar bayon etildi;
- yordamchi birliklarni o'rta maxsus ta'lim tizimidagi ifodasi, uni o'tish haqida mulohaza va takliflar aytiladi.

Malakaviy bitiruv ishining tuzilishi va hajmi. MBI kirish (ishning umumiy tavsifi), ikki bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, sahifani tashkil etadi.

I BOB. O'zbek tilida yordamchi so'zlar, ularning manbalardagi ifodasi

I.I So'z turkumlari tizimida yordamchi so'zlar

So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi. Bunda ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar mustaqil so'z turkumlariga; yuklama, bog'lovchi, ko'makchilar esa yordamchi so'z turkumlariga bo'linadi[3;7;8;11;14;15;16;17;20;21].

Yuqorida berilgan qoidaga izoh beradigan bo'lsak, birinchidan, mustaqil so'z turkumlari ma'lum so'roqqa javob bo'ladi. Masalan, ot so'z turkumi kim?, nima?, qayer? so'roqlariga, sifat so'z turkumi qanday?, qanaqa?, qaysi?, son so'z turkumi nechta?, nechanchi?, qancha?, fe'l so'z turkumi nima qildi?, nima qilyapti?, nima qilmoqchi? va hokazolar. Xullas, mustaqil so'z turkumlari biror so'roqqa javob bo'la oladi. Yordamchi so'z turkumlari esa hech qanday so'roqqa javob bera olmaydi. Negaki, unda so'roqqa javob bera oladigan lug'aviy (atash) ma'no mavjud emas. Ammo shu o'rinda aytib o'tish lozimki, yordamchi so'zlar so'roq olmoshlariga qo'shilib gapda so'roq so'zlarni hosil bo'lishida yordam beradi. Masalan, nima uchun?, nima maqsadda?, nima sababdan?, kim uchun?, kim tufayli?, kim sababli?, qay yo'sinda?, qanday qilib? va hokazolar.

Endi qoidaning ikkinchi qismiga, atash (lug'aviy) ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga ko'ra so'zlarning mustaqil yoki yordamchilarga ajralishiga to'xtaladigan bo'lsak, ot so'z turkumiga lug'aviy ma'no mavjud. Masalan, koptok, ko'zgu, koinot so'zlari misolida olib qaraydigan bo'lsak, koptok – so'zining lug'aviy ma'nosi umuman, ba'zi oyinlar uchun mo'ljallangan dumaloq shaklga ega elastik buyum. Ko'zgu so'zi barcha ko'zga ko'rinadigan narsalarning aksini ko'rsatadigan buyum. Koinot– yer shari va undan keyingi butun sayyoralarni o'zida jam etgan cheksizlik. Sifat so'z turkumiga oid yaxshi so'zi insonlarga ijobiy

tasavvur bera oluvchi soʻz. Baland soʻzi pastdan yuqoriga qarab koʻtarilgan masofa. Umuman olganda, mustaqil soʻz turkumlaridan olmoshdan boshqa barcha soʻz turkumlarida lugʻaviy maʼno mavjud. Yordamchi soʻz turkumlarida esa lugʻaviy maʼno mavjud emas. Shuningdek, yordamchi soʻz turkumlari gapda hech qanday gap boʻlagi vazifasida kela olmaydi, ammo oʻzi bogʻlangan soʻz bilan birgalikda gap boʻlagi boʻlib kela olishi mumkin. Masalan, *Vatan men uchun muqaddas tushuncha, yoki shunday qilib, ish borgan sari kattalashar katta boʻlar va ish katta boʻlgan sayin Sayid Jalolxonning kallasi oʻgʻirlashar edi* (A.Qahhor). Bunda birinchi gapda *uchun* koʻmakchisi oʻzi bogʻlanib kelgan soʻz bilan birgalikda toʻldiruvchi vazifasida kelgan boʻlsa, ikkinchi gapda *hol* vazifasida kelyapti.

Yordamchi soʻz turkumlari haqida yana shuni aytib oʻtish mumkinki, ularda grammatik maʼno mavjud, grammatik vazifa mavjud, grammatik shakl mavjud. Shuningdek, gaplarni oʻzaro bogʻlaydi, soʻzlarni oʻzaro bogʻlaydi, qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Yordamchi soʻzlar mustaqil soʻzlar bilan qoʻshimchalar oraligʻida turgan grammatik vositalardir. Yordamchi soʻzlar quyidagilar:

1. Bogʻlovchi
2. Koʻmakchi
3. Yuklama

Gapning uyushiq boʻlaklarini va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni oʻzaro bogʻlash uchun xizmat qiluvchi yordamchi soʻzlarga bogʻlovchi deyiladi. Masalan, *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo...yo, dam...dam, goh... goh* singari. *Maysa va daraxtlarga jon kiryapti, chunki bahorning iliq nafasi sezila boshlagan edi.* (H. Nazir) Bogʻlovchilar ham barcha yordamchi soʻz turkumlari singari:

1. Atash maʼnosiga ega boʻlmaydi;
2. Maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydi;
3. Morfologik jihatdan oʻzgarmaydi;
4. Gap boʻlagi vazifasida kelmaydi;

5. Yasalish hodisasi bilan a'loqador emas.

Bog'lovchilar quyidagicha tasnif qilinadi: I Gap bo'lagi va gaplarni qanday bog'lashiga ko'ra, ya'ni vazifasiga ko'ra bog'lovchilar ikkiga bo'linadi: a) teng bog'lovchilar b) ergashtiruvchi bog'lovchilar.

II Qo'llanilishiga ko'ra bog'lovchilar ikkiga bo'linadi:

- a) yakka bog'lovchi– gap tarkibiga yakka holda qo'llaniladigan bog'lovchilar;
- b) takroriy bog'lovchilar –gapda takror holda qo'llaniladigan bog'lovchilar.

III Bog'lovchilar ham tabiatiga ko'ra ikkiga bo'linadi.

- a) sof bog'lovchilari– faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar: va, lekin, ammo, biroq kabilar.
- b) vazifadosh bog'lovchilar– bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchi so'zlar. Masalan, bilan so'zi aslida sof ko'makchi, lekin bog'lovchi vazifasida kela olganligi uchun vazifadosh bog'lovchi hisoblanadi. Yana bundan tashqari ham, na...na, -u, -yu, -da yordamchilari ham yuklama ham bog'lovchi vazifasida; balki ham bog'lovchi, ham modal so'z ma'nosida qo'llanilaveradi.

Teng bog'lovchilar o'zaro teng munosabatda bo'lgan gap bo'laklari va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi. Shuningdek, teng bog'lovchilar uyushiq bo'laklar va gaplarni bog'lash bilan birgalikda, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni ham ro'yobga chiqaradi. Shunga ko'ra teng bog'lovchilar quyidagi guruhlariga bo'linadi:

- a) biriktiruv bog'lovchilari: va, hamda sof bog'lovchilari; bilan ko'makchi-bog'lovchisi, ham, -u, -yu, -da yuklama-bog'lovchilari.
- b) zidlov bog'lovchilari: ammo, lekin, biroq, balki
- c) ayiruv bog'lovchilari: yoki, yo.., yo; dam.., dam; goh.., goh, bir.., bir; ba'zan..., ba'zan;
- d) inkor bog'lovchisi: na...na.

Biriktiruv bog'lovchilari uyushiq bo'laklarini va uyushiq gaplarni (bog'langan qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni) o'zaro bog'lab, biriktiruv munosabatini ifodalaydi. Masalan: Dunyoning tinchligi va farovonligi dono va oqil insonlarning faoliyatiga bog'liq. (Gazetadan)

Biriktiruv bog'lovchilari qo'llanilishiga ko'ra yakka bog'lovchilar hisoblanadi. Yozuvda va, hamda, bilan bog'lovchilari ishlatilganda hech qanday tinish belgisi qo'yilmaydi. -u, -yu, -da o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan yoziladi. Bu yuklama-bog'lovchilar uyushgan bo'laklarni bog'lab kelsa, vergul qo'yilmaydi; qo'shma gap qismlarini bog'lab kelsa, ulardan so'ng vergul qo'yiladi. Ham yuklamasi bog'lovchi vazifasida takror holda ham, yakka holda ham kelishi mumkin: O'rtada bo'lsin deb qadr ham izzat, Ayрилиq va o'lim yaralganmi yo(Gazetadan).

Ayiruv bog'lovchilari uyushiq bo'laklari va qo'shma gap qismlarini bog'lab, ayiruv va galma-gal munosabatini ifodalaydigan bog'lovchilar ayiruv bog'lovchilari hisoblanadi. Masalan: Saida goh afsuslanib, goh kuyib, goh kulib gapirar edi.(A.Qahhor) Goh yalt etib quyosh ko'rinadi, goh osmonni bulut egallaydi.(G'. G'ulom)

Ayiruv bog'lovchilariga quyidagilar kiradi: yo, yohud, yoki, yoinki, yo...yo; dam...dam; goh... goh; dam...dam; hali...hali; bir...bir bog'lovchilari

Yuqorida ko'rinib turibdiki, ayiruv bog'lovchilari qo'llanilishiga ko'ra yakka va takror holda qo'llanilar ekan. Bulardan yo va yoki so'zlari yakka holda ham, takror holda ham qo'llaniladi.

Eslatib o'tish joizki, takror holda qo'llaniluvchi bog'lovchilar yakka holda boshqa vazifada qo'llanilishi mumkin. Masalan, U ba'zan biznikiga kelib turardi. (A.Qahhor) Bu yerda ba'zan so'zi payt ravishi.

Zidlov bog'lovchilari o'zaro zidlik munosabatida bo'lgan uyushiq bo'laklarni yoki qo'shma gap qismlarini bir-biriga bog'lab keluvchi yordamchi so'zlar hisoblanadi.

1. Zidlov bog'lovchilariga quyidagilar kiradi:

- a) ammo, lekin, biroq – bular sof bog'lovchilar;
- b) Balki – vazifadosh bog'lovchi, aslida modal so'z;
- c) -u, -yu, -da – vazifadosh bog'lovchi, aslida yuklama.

Uyushiq bo'laklarni va gaplarni inkor ma'nosini yuklagan holda bog'lovchi na..., na... yordamchisi inkor bog'lovchisi hisoblanadi. Masalan: Na faryoding, na doding bor, Nechun sen buncha sustlashding? (Cho'lpon)

Ergashtiruvchi bog'lovchilar o'zaro tobe munosabatda bo'lgan gap bo'lagi va gaplarni bog'lash uchun ishlatiladigan bog'lovchilardir. Ularga quyidagilar kiradi:

Sabab bog'lovchilari – sabab ergash gaplarni bog'lab, ular o'rtasidagi sabab-natija munosabatini ifodalaydigan yordamchi so'zlar. Sabab bog'lovchilari gaplarni o'zaro tobelantirib bog'laydi. Ular o'rtasida sabab-natija ma'nolarini ifodalaydi: chunki, negaki, zeroki, zotan so'zlari.

Aniqlov bog'lovchisi – ergash gapni bosh gapga bog'lashda aniqlov munosabatini hosil qiluvchi bog'lovchilarga aytiladi. Ya'ni, -ki (-kim), toki kabilar aniqlov bog'lovchilari hisoblanadi.

Shart bog'lovchilari shart, to'siqsiz holni hokim bo'lakka hamda shart, to'siqsizlik ma'nosini ifodalaydigan yordamchi so'zlar shart bog'lovchilari hisoblanadi. Ular quyidagilar: agar(gar), garchi, agarda, basharti, mobodo.

Umuman, bog'lovchilarning morfologiya va sintaksisda o'z o'rnini mavjud. Til ta'limida bog'lovchilar mukammal o'rganilgan.

So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Shuningdek, ot, olmosh, harakat nomi va sifat doshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga tobe yo'l bilan bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga ko'makchi deyiladi. Ko'makchilar boshqa yordamchilar kabi sof va vazifadosh so'zlarga bo'linadi.

Sof ko'makchilar atash ma'nosi tamoman yo'qolgan. Faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan, ya'ni o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash

uchun xizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar sanaladi. Ular urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi.

Vazifadosh ko'makchilar leksik ma'noga ega. gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlarga vazifadosh ko'makchilar deyiladi[3;7;8;11;14;15;16]. Vazifadosh ko'makchilar asli mustaqil ma'noli so'zlar bo'lib, ko'makchi vazifasida kelganda lug'aviy ma'nosini yo'qotgan bo'ladi. Ular quyidagilar: ost, ust, yon, so'ng, old, orqa, ro'para, avval, keyin, qosh, bo'ylab, qarab, ko'ra, deb, deya, atab, bo'yi binoan, asosan, bo'lak, orqali, sababli, qarshi, tepada, boshida, ichida, tashqari, muvofiq, qaraganda, qaramay va hokazolar.

Ko'makchilarning ma'no turlari. Ko'makchilar yetakchi (o'zidan oldingi so'z)ga bog'lanib, unga turli qo'shimcha ma'nolar yuklaydi. Jumladan:

1. Sababli, tufayli, uchun ko'makchilari– maqsad ma'nosida;
2. Tomon, sari, qarab, bo'ylab ko'makchilari–yo'nalish ma'nosida;
3. Haqida, to'g'risida ko'makchilari –fikir mavzusi ma'nosida;
4. Kabi, singari ko'makchilari – o'xshatish, qiyoslash ma'nosida;
5. Qadar ko'makchisi– chegara ma'nosida keladi.

Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi. Ayrim qo'shimchalar vazifasiga ko'ra ko'makchilarga o'xshaydi, shuning uchun ba'zan birining o'rnida ikkinchisi qo'llanishi mumkin: O'xshatish ma'nosini ifodalovchi -dek, -day qo'shimchalari bilan kabi, singari, yanglig' ko'makchilari sinonim. Masalan: Vatan onadek (-day, kabi, yanglig') muqaddas.

Ko'makchilar kelishiklar bilan ham sinonimlik hosil qiladi:

- a) kamchiliklarni gapirdi–kamchiliklar haqida(to'g'risida) gapirdi
- b) uyga ketdi–uy tomon(sari, bo'ylab) ketdi.
- c) ukamga oldim–ukam uchun oldim.
- d) mashinada terdi–mashina bilan terdi.
- e) radiodan e'lon qildi–radio orqali e'lon qildi.

Ko'makchilar bilan birga qo'llaniladigan shakllar.

1. Bosh kelishik bilan kabi, singari, bilan, uchun, sari, sayin, uzra, tufayli, haqida kabi sof va osha, bo'ylab, holda, yo'sinda kabi vazifadosh ko'makchilar birgalikda keladi. Masalan: sen kabi, oy singari, o'qigan sayin, onam uchun...
2. Qaratqich kelishigini olgan so'zlarga qo'shiladigan ko'makchilar: old, ost, ust, yon, orqa, tag, tepa, ich, uch, ora, o'rta kabi vazifadosh ko'makchilar. Masalan: stolning osti, uyning yoni, bog'ning orqasi, xonaning o'rtasi.
3. Jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga doir, qadar, oid, kabi sof ko'makchilar ko'ra, qaramay, yarasha, qarshi, qaraganda, qaramasdan kabi vazifadosh ko'makchilari keladi. Masalan: niyatiga yarasha, mavzuga doir, shunga oid.
4. Chiqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladigan ko'makchilar: keyin, avval, oldin, boshlab, bo'lak, boshqa, tashqari, beri, nari, ilgari, o'zga, buyon kabilar. Masalan: ertadan boshlab, ta'tildan ilgari, sendan bo'lak, kechadan beri.

Yuklama bog'lovchi va ko'makchidan farqli so'z va gaplarning bir-biriga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi. So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi[14;15;16;17;20;21]. Ular quyidagicha tasniflanadi:

1. So'roq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a, -ya qo'shimcha-yuklamalari. Masalan: Borasizmi? Borasiz-a? Siz-chi?!
2. Ayiruv-chegaralov yuklamalari: faqat, atigi, faqatgina, -gina(-qina,-kina), xolos, ba'zan bir, birgina, yolg'iz so'zlari ham kiradi. Masalan: Darsga faqat Ahmad kelmadi. Hamma darsda yaxshi ishtirok etdi, bir Farid qatnashmadi.
3. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari: axir, hatto, hattoki, nahot, nahotki, g'irt, ham, -oq(-yoq), -ku, -da, -u(-yu) kiradi. Masalan: Men ham qiziqaman. Axir

o'zing der eding-ku, silab o'ksik boshimni. O'sha joyga qaytib borish g'irt ahmoqlik bo'lar edi.(H.Nazir)

4. O'xshatish-qiyoslash yuklamalari: xuddi, naq, go'yo, go'yoki. Masalan: Misralarda so'zlar gavhar kabi yonadi, go'yo yangi jilvalar porlaydi (Mirtemir).
5. Gumon yuklamasi: -dir qo'shimchasi gumon ma'nosini yuklaydiga qo'shimcha hisoblanadi. Masalan: Sizni allaqachon yo'qlab kelgandir. Bu qo'shimcha omonimlik xususiyatiga ega. Ya'ni shaxs-son qo'shimchalari -man, -san qo'shimchalari qatorida turadi.
6. Inkor yuklamasi: hech, sira, aslo, na...na... kabi so'zlar inkor yuklamalari sanaladi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, inkor bog'lovchisi va inkor yuklamasini gapdagi kesimning tasdiq yoki inkor shakli orqali farqlash kerak. Masalan: Uning na boyligi na martabasi bor edi.

Xullas, yuklamalar so'z va gaplarga qo'shimcha ma'no kiritishi bilan bog'lovchi va ko'makchilardan farqlanadi. Ular ma'no imkoniyati jihatdan keng imkoniyatga ega. Yuklamalardan o'rinli foydalanish nutqni ta'sirli va jozibali qiladi.

I.2. Umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi

Umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida[7;8] yordamchi so'zlarga tegishli soatlar ajratilgan. Yordamchi so'larning har bir turi alohida bayon etilgan. Davlat ta'lim standartlarida o'rta umumta'lim maktablarining beshinchi va yettinchi sinflari uchun belgilangan "Yordamchi so'zlar" mavzusining o'tilishi uchun qo'yiladigan talablarning umumiy bayonida quyidagilar hisobga olingan:

- beshinchi sinfdagi o'quvchilarning yosh xususiyatiga e'tibor berilgan holda ushbu mavzularga qisqacha yondashilgan;
- yettinchi sinfda "yordamchi so'zlar" mavzusiga keng va batafsil yondashilgan;

- ko'makchilarga oid tushunchalarning batafsil yoritilgan;
- bog'lovchilarga oid tushunchalarning keng va batafsil yoritilgan;
- yuklamalarga oid bilimlarni batafsil o'rganilgan.

O'rta umumta'lim maktablarining beshinchi va yettinchi sinflarida “Yordamchi so'z turkumlari” mavzusi o'tiladi. Beshinchi sinf ona tili darsligida yordamchi so'zlar mavzusiga qisqacha to'xtalib o'tilgan, jumladan unga quyidagicha ta'rif berilgan: “Biror so'roqqa javob bo'lmay, gap yoki gap bo'laklarini bir biriga bog'lash va ularga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiladigan so'zlarga yordamchi so'zlar deyiladi. Bog'lovchi, ko'makchi, yuklamalar yordamchi so'zlardir.”¹

Qoidalarining bunday sodda ko'rinishda berilganligi o'quvchilarning yosh darajasi bilan bog'liq. Ularga o'qituvchi tushuntirayotgan vaqtda shu narsaga ahamiyat berishi kerak. Masalan, so'roqqa javob bo'lmasligini alohida, gap bo'laklarini bir-biriga bog'lashga xizmat qilishini, yoki ularga qo'shimcha ma'no yuklashga xizmat qilayotganligini alohida tushuntirishi lozim bo'ladi. Mavzuning qoidalariga to'xtalishdan oldin maxsus topshiriq berilgan. Topshiriqni qoida bilan birgalikda tushuntirilsa bolaning tushunishi osonroq bo'ladi. Yana mavzuga oid mashqlarni bajara olishida o'qituvchi o'quvchilarga yordam berishi lozim. Keyingi mavzu “ Bog'lovchilar” bo'lib, unda quyidagicha qoida berilgan: “Uyushiq bo'laklarni va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bog'lash uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlar bog'lovchi sanaladi. Bog'lovchi gap bo'lagi vazifasida kelmaydi”. Bog'lovchilarga bunihgdek qisqacha ta'rif berilishiga sabab - o'quvchilarning yosh xususiyati hisoblanadi. Berilgan mavzuda teng va ergashtiruv bog'lovchilari, ularning tarkibiga kiruvchi turlari kiritilmagan, chunki o'quvchiga bunchalik murakkab tuzilmalarni qabul qilishi qiyin kechadi. Qoidada bog'lovchilarga aynan qaysi so'zlar kirishi keltirilmagan, ammo topshiriqlarni, berilgan mashqlarni bajarish davomida

¹ N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va b. Ona tili: umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. – T.: “Ma'naviyat”, 2015. 103-b.

o'qituvchidan shu narsani tushuntirib o'tishi talab qilinadi. Masalan, 5-sinfning "Bog'lovchilar" mavzusida 293-mashqda nuqtalar o'rniga bog'lovchilarni to'g'ri joylashtirish kerakligi aytiladi. Birinchi namunada "Tuyaqush ... qoplon ikkalasi do'st bo'libdi" deyiladi. Ana shu mashqda ikki so'z bema'lol qo'llanilishi mumkin. Bular: va bog'lovchisi, bilan ko'makchisi. Ana shunday murakkabliklarga duch kelinganda o'qituvchidan e'tibor berib, tushuntirilishi talab etiladi. Shuningdek, keyingi mavzu "Ko'makchi" bo'lib, ung ham juda siqiq tarzda to'xtalib o'tilgan. Qoida quyidagicha: Otlarning boshqa so'zlarga tobe bog'lanishi uchun xizmat qiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Ko'makchilar ko'pincha ot so'z turkumiga oid so'zlarni fe'lga bog'lash uchun xizmat qiladi. Masalan, Shahar tomon ketdi. Daryo bo'ylab yurdi. Ba'zan otni ot, sifat va ravishlarga tobelantirib bog'laydi. Masalan, ona kabi mehribon. Salimadan ko'ra katta. Qoidada ko'rinib turganidek barcha ko'makchilarga oid so'zlar berilmagan, lekin qoidadan oldin berilgan topshiriqda ayrim namunalarni ko'rishimiz mumkin.

"Yuklama" mavzusiga esa quyidagicha ta'rif berilgan: "Ayrim gap bo'lagi yoki butun gapning mazmuniga qo'shimcha ma'no yuklash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga yuklama deyiladi. Yuklamalar so'z-yuklamalar va qo'shimcha-yuklamalarga bo'linadi. So'z-yuklamalar o'zi qo'shilayotgan so'zdan doimo alohida yoziladi. Qo'shimcha-yuklamalar esa o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoki chiziqcha bilan yoziladi. -mi, -oq (yoq), -gina (-kina, -qina) yuklamalari o'zi qo'shilayotgan so'zga qo'shib yoziladi. Masalan, keldimi? senmi? keliboq, kelsayoq, sengina kabi. -chi, -u(-yu), -a(-ya) -da yuklamalari o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ayirib yoziladi. Masalan: sen-chi? Ayt-chi! Keldi-yu, ketdi. Borgin-a!"²

Albatta, yuklamaning qoidasida yuklamaning ma'no munosabatiga ko'ra turlari berilmagan, lekin mashqlarda, ya'ni 300-mashqda yuklamalarga oid so'zlar qanday

² N. Mahmudov, A. Nurmonov, A. Sobirov va b. Ona tili: umumta'lim maktablarining 5-sinflari uchun darslik. – T.: "Ma'naviyat", 2015. 106-b.

ma'no anglatayotganini aniqlang deyiladi. Bu o'quvch diqqatini o'shish maqsadida bo'lsa, ajab emas.

Yettinchi sinfda o'quvchilar anchagina aqlli va tushunish qobiliyati ham yetarlicha bo'ladi. Shuni hisobga olgan holda, yettinchi sinf ona tili darsligida "Yordamchi so'zlar" mavzusi keng va murakkab berilgan. Jumladan "Yordamchi so'zlar" mavzusidagi topshiriqni ko'rish mumkin: "So'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligiga ko'ra, atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud bo'lmasligiga ko'ra, shuningdek, gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida kelish kelmasligiga ko'ra mustaqil va yordamchi so'z turkumlariga ajratiladi". Kuzatishni davom ettiramiz: "Ot, sifat, son, fe'l, ravish va olmoshlar ma'lum bir so'roqqa javob bo'ladi. Ularning barchasi, olmoshlardan tashqari, atash ma'nosiga ega. Ot borliqdagi shaxs-narsalarning, voqea-hodisalarning nomini, sifat va ravish belgini, son miqdorini ifodalaydi. Olmosh esa yuqoridagi so'zlardan qaysisining o'rnida kelsa, o'shaning ma'nosiga ishora qiladi."³

Ushbu ta'rifga o'qituvchi tomonidan izoh berib o'tilsa, yomon bo'lmaydi, chunki mustaqil so'z turkumlaridan ot, sifat, son, ravish va fel mavzulari 6-sinfda o'tilganligi sababli o'quvchining xotirasidan ko'tarilgan bo'lishi mumkin. Shunday holatning bo'lishi hisobga olingan holatda yana bir bor qoida eslanadi.

Darslikning "Bilib oling" ko'rsatkichida shunday qoida berilgan: "Atash ma'noli so'zlar yoki ular o'rnida qo'llanilib, ma'lum so'roqlarga javob bo'luvchi va gapda ma'lum gap bo'lagi vazifasida keluvchi so'zlar mustaqil so'zlar sanaladi. Atash ma'nosiga ega bo'lmagan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan, gap bo'lagi vazifasida kelmaydigan so'zlar yordamchi so'zlar sanaladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlarni yoki gaplarni bir-biriga bog'lash, ularning ma'nolariga qo'shimcha ma'no yuklash vazifalarini bajaradi. Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar kiradi".

³ N. Mahmudov va boshq. Ona tili: umumiy o'rta ta'lim maktablarining 7-sinfi uchun darslik. –T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi"2013. 73-bet.

Keltirilgan qoida keyingi mashq orqali o'quvchilar bilan birgalikda tushuntirilishi mumkin. Masalan, 154-mashqdagi gaplardan misol olamiz. “Ey farzand, aqlli, farosatli va ilm-u hunarli kishilar bilan do'st bo'l” gapida o'quvchilar avval mustaqil ma'noli so'zlarni, keyin yordamchi so'zlarni aniqlashadi. O'qituvchi qoidaga yondashgan holatda mustaqil ma'noli so'zlarga so'roq beradi va ularning gapdagi sintaktik vazifasini, keyin atash ma'nosiga ega bo'lmagan so'zlarga so'roq berib bo'lmashligini, gap bo'lagi bo'lib kela olmasligini, ammo gapda ma'lum grammatik vazifasini tushuntirib berishi lozim.

Keyingi oltita mavzu “ Ko'makchi” yordamchi so'z turkumiga oid. Darslikning 47-mavzusida ko'makchiga shunday ta'rif beriladi: “Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdoshlardan keyin kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi”. Berilgan qoidadan so'ng 159-mashq berilgan. Mashqning berilganligining sababi keyingi qoida uchun bir ilova va o'quvchilarga bir ochqich. Ya'ni sof va vazifadosh ko'makchilarnin nima ekanini shu mashq orqali tushunib olishlari mumkin. Mashqning birinchi gapida lug'aviy ma'noga ega so'zlar, ikkinchi namunalarida xuddi shu so'zlarning lug'aviy ma'nosini yo'qotib ko'makchi vazifasida kelganligiga misol bor. Keyingi mavzu “ Sof ko'makchilar” mavzusi bo'lib, unga quyidagi ta'rif berilgan: Atash ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat o'zi birikkan so'zni boshqa so'zga tobelantirib bog'lash uchun xizmat qiladigan ko'makchilar sof ko'makchilar sanaladi. Bilan, sari, sayin, uchun, kabi, qadar, singari, uzra, tufayli, haqida ko'makchilari sof ko'makchilardir. Darslikning alohida “eslab qoling” belgisi ostida quyidagi qoida berilgan: Sof ko'makchilar urg'u olmaydi. Urg'u ko'makchi bilan birga kelgan mustaqil so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Shuning uchun ko'makchi ohang tomonidan o'zidan oldingi so'z bilan bir butunlikni tashkil qiladi, lekin yozuvda ko'makchi doim ayirib yoziladi. Ba'zan bilan, uchun so'zlari badiiy uslubda -la, -chun shaklida qo'llanadi va chiziqcha bilan ayirib yoziladi. Masalan, Fursat g'animatdir shox satr-la, bezamoq chog'idir umr daftarin(G'.G'ulom). Ko'rinib turganidek, yettinchi sinf

darsligida yordamchi soʻz turkumlariga keng qamrovda yondashilgan, yaʼni unda imlo, talaffuz, orfografik masalalar nuqtayi nazaridan yondashilgan.

Darlikdagi ayrim maʼlumotlarga eʼtirozlarimiz ham bor. Masalan, sof koʻmakchilarga urgʻu tushmaydi deya alohida taʼkidlangan, ammo vazifadosh koʻmakchilar mavzusida bu haqida soʻz yuritilmagan. Vazifadosh koʻmakchilarga quyidagi taʼrif berilgan: Vazifadosh koʻmakchilarga ost, yon, ust, old, orqa, roʻpara, oldin, avval, deya, deb, atab singari soʻzlar kiradi. Bunday soʻzlar koʻmakchi vazifasida kelganda, atash maʼnosini yoʻqotadi, shuning uchun maʼlum soʻroqqa javob boʻlmaydi. Oʻzi qoʻshilgan soʻz bilan birgalikda bitta soʻroqqa javob boʻladi. Darslikning birinchi topshirigʻida soʻzlarning grammatik maʼnosini yoʻqotgandagi vazifadosh boʻlib qolganligini farqini aniqlashda yordam beradi. Masalan, birinchi gapda mustaqil maʼnoli soʻz, ikkinchisida shu soʻzning koʻmakchi vazifasida kelishi berilgan.

Keyingi mavzu “ Koʻmakchilarning maʼno turlari” boʻlib, unga quyidagi taʼrif berilgan: Koʻmakchilar yetakchi soʻzga bogʻlanib, unga turli qoʻshimcha maʼno yuklaydi. Jumladan, sababli, tufayli, uchun maqsad maʼnosini; haqida, toʻgʻrisida koʻmakchilari mavzu maʼnosini; kabi, singari koʻmakchilari oʻxshatish, qiyoslash maʼnolarini; qadar koʻmakchisi chegara maʼnolarini ifodalaydi.

Qoida mashqlar yordamida tushuntirilsa, oʻquvchiga yanada tushunarli boʻladi. Masalan, mavzuga oid 171-mashqda gaplar berilgan boʻlib, bunda oʻquvchi nuqtalar oʻrniga kerakli koʻmakchini qoʻyadi, oʻqituvchi ularga maʼno turini topishda yordam beradi. Masalan: 1. Shunaqa,- dedi Xolida opa hikoyasini davom ettirib,- uni bizning maktabimizga tajribaga olib kelishgan edi.(E. Usmonov) Ushbu mavzuda mashqlar kamroq boʻlganligi sababli oʻquvchilarga qoʻshimcha topshiriqlar bilan ham murojaat qilish mumkin. Keyingisi “ Koʻmakchilar va qoʻshimchalar maʼnodoshligi”. Kuzatamiz: *-dek* qoʻshimchasi narsa-hodisa, belgi-xususiyatga oʻxshatishni ifodalaydi va shu maʼnoda *kabi, singari, yangligʻ* koʻmakchilari bilan maʼnodoshlikni hosil qiladi. Joʻnalish kelishigi qoʻshimchasi yoʻnalish maʼnosida *tomon, boʻylab* koʻmakchilari bilan maʼnodoshdir.

Albatta, bu o'rinda kelishiklar va ko'makchilar ma'nodoshligi haqida ham ma'lumot berilsa, maqsadli bo'lardi. Bu vaqt o'qituvchi mavzuning qisqaligidan foydalanib, o'quvchilarga shu haqda ma'lumot bersa edi maqsadga muvofiq bo'lardi. Keyingi mavzu "Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari" deb nomlanadi. *Bilan, kabi, singari, uchun, sari, sayin, bo'ylab* kabi ko'makchilar, asosan, bosh kelishik shaldidagi ismlarga qo'shiladi. *Ko'ra, qaramay, yarasha, asosan, doir, muvofiq* kabi ko'makchilar jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. *Tomon* ko'makchisi bosh va jo'nalish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. *Keyin, boilak, boshqa, oizga, tashqari, buyon, oldin, boshlab, avval* kabi ko'makchilar chiqish kelishigi shaldidagi ismlarga qo'shiladi. *Old, ost, ust* singari vazifadosh ko'makchilar qaratqish kelishigi shaklidagi ismlarga qo'shiladi. Bunday hollarda ba'zan kelishik qo'shimchasi qo'llanmasligi ham mumkin.

Yuqorida o'tilgan mavzularga asosan, ushbu berilgan mavzudagi mashqlar va topshiriqlarni bajarishda o'qituvchi o'quvchilardan ko'makchilar haqida keng doirada savol-javob olib borsa maqsadga muvofiqdir. Aniqroq qilib aytsek, ushbu 52-dars mavzusi "Ko'makchilar bilan birga kelgan so'zlarning shakllari" ekan, bunda faqatgina berilgan qoida bilan cheklanmay, mavzuni kengroq ochib beruvchi mashq va topshiriqlar berilsa samarali bo'lib hisoblanardi. Masalan, berilgan 1-topshiriq shartida o'quvchidan faqat kelishik shakllari so'raladi, o'qituvchi esa berilgan misollarda qaysilari sof ko'makchilar, qaysilari vazifadoshligini, ko'makchilarning ma'no turlarini va qo'shimchalar bilan almashtirgan holda qo'llash mumkinmi yoki, yo'qligini ham o'quvchilardan so'rab ularning xotirasini mustahkamlashga yordam berish mumkin.

Keyingi dars "Mustahkamlash" mavzusi bo'lib, bunda o'tilgan mavzularni mustahkamlash uchun to'rtta topshiriq berilgan. Birinchi topshiriqda ko'makchilarning o'rniga ahamiyat berish haqida shart qo'yilgan, lekin o'qituvchi bunda o'quvchilarga barcha o'tilgan mavzularga aloqador savollar berishi mumkin. Keyingi topshiriqlar ham shu zaylda bajarilsa foydadan holi bo'lmaydi.

Ko'makchilarga oid mavzular yakunlangandan so'ng, "Bog'lovchi" mavzusi berilgan. Ushbu mavzu ham 5-sinfqa qaraganda ancha keng qamrovda berilgan

bo'lib, quyidagi ta'rif berilgan: Gapning uyushiq bo'laklarini va qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni o'zaro bog'lash uchun xizmat qiluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchi deyiladi. Masalan: *va, ammo, lekin, biroq, chunki, yo... yo, dam... dam, goh... goh* singari. *Bilan* ko'makchisi ba'zan uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganda bog'lovchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan daftar oldim*. O'zaro tobe bog'lanuvchi so'zlarni bog'lab kelganda ko'makchi vazifasini bajaradi: *Qalam bilan yozdim*.

Bunda o'quvchilarga yengillik bo'lsin uchun dastlabki topshiriq va mashqda namunalar ham berilgan. Keyingi ikki mashq o'quvchining o'ziga havola etilgan. Ushbu mavzuga oid berilgan ikkinchi topshiriq shartida bog'lovchilarning vazifasini tushuntiring deyiladi, vaholanki hali bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari keyingi mavzuda berilgan. Balki bu keyingi mavzular uchun poydevor vazifasini o'tashi kerakdir, bunisi bizga tushunarsiz bo'lib qolmoqda. Berilgan 181-mashqda shunday gap berilgan: O'zi Balo tog'ining... Ofat bulog'ining boshida o'ltirarmish, kun-u, yoz ham qish. (H. Olimjon) Bu gapda nuqtalar o'rni qo'llaniluvchi bog'lovchi bilan birga yana bog'lovchi vazifasida kelgan -u, ham yuklamalari qo'llanilgan bo'lib, o'qituvchi buni e'tibordan chetda qoldirmasligi lozim. 182-mashq esa bilan so'zining sof ko'makchi va vazifadosh bog'lovchi bo'lib kelgan o'rinlarni aniqlashda o'quvchilarni ziyraklikka o'rgatadi. 183-mashqni bajarishda o'quvchilarga o'qituvchining yordami kerak bo'ladi. Chunki bu mashq o'quvchilarga birozgina murakkabroq tuyulishi mumkin.

Keyingi darsda bog'lovchilarning vazifasiga ko'ra turlari tushuntirilgan bo'lib, quyidagi qoida keltirilgan: Vazifasiga ko'ra bog'lovchilar teng va ergashtiruvchi bog'lovchilarga bo'linadi.

Mavzuning birinchi topshirig'ini o'qituvchi avvalo o'quvchilarning o'zidan so'rab ko'rib, o'quvchilar bergan javobni to'ldirishi mumkin.

Keyingi darsimiz teng bog'lovchilarga bag'ishlangan va unga quyidagi ta'rif berilgan: Uyushiq bo'laklar va o'zaro teng munosabatdagi gaplarni bog'lab keluvchi bog'lovchilar teng bog'lovchilar hisoblanadi. Teng bog'lovchilar uyushiq bo'lak va gaplarni bog'lash bilan birga, ular o'rtasidagi mazmuniy munosabatni

ham ro'yobga chiqaradi. Shunga ko'ra teng bog'lovchilar quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- 1) biriktiruv bog'lovchilari: *va, hamda, bilan, ham;*
- 2) zidlov bog'lovchilari: *ammo, lekin, biroq, balki;*
- 3) ayiruv bog'lovchilari: *yoki, yo ... yo, goh ... goh, dam ... dam, bir ... bir, ba'zan ... ba'zan, xoh ... xoh;*
- 4) inkor bog'lovchisi: *na ... na.*

Mavzuga oid berilgan topshiriqlarga va mashqlarga qo'yilgan shartlarga o'qituvchi, albatta, izoh berib o'tishi kerak.

Keying mavzu "Sof va vazifadosh bog'lovchilar" bo'lib, unga quyidagi ta'rif berilgan: Bog'lovchilar ham xuddi ko'makchilar singari sof va vazifadosh turlarga bo'linadi. Faqat bog'lovchi vazifasini bajaruvchi yordamchi so'zlar sof bog'lovchilar sanaladi: *va, lekin, ammo, biroq* kabi.

Bir o'rinda bog'lovchi, boshqa o'rinda ko'makchi, yuklama yoki modal so'z vazifasida keluvchi yordamchilar vazifadosh bog'lovchilar sanaladi. Masalan, *bilan* ham ko'makchi, ham bog'lovchi; *ham, na...na* ham bog'lovchi, ham yuklama; *-u (-yu), -da* yordamchilari ham yuklama, ham bog'lovchi; *balki* ham bog'lovchi, ham modal so'z vazifasini bajaradi.

Darslikda avval "Teng bog'lovchilar" ni, so'ngra "Ergashtiruvchi bog'lovchilar" mavzusini berib o'tishdan oldin "Sof va vazifadosh bog'lovchilar" mavzusi berib o'tilgan, chunki mavzularga oid berilgan topshiriqlarda va mashqlarda biroz tushunmovchiliklar kelib chiqishi mumkinligi inobatga olingan.

Keyingi 60, 61, 62, 63- darslar teng bog'lovchilar guruhiga mansub yordamchilar mavzulari yoritilgan. Uyushiq bo'laklarni va uyushiq gaplarni o'zaro biriktirib keluvchi bog'lovchilar biriktiruv bog'lovchilari hisoblanadi.

Biriktiruv bog'lovchilariga *va, hamda* sof bog'lovchilari, *bilan* ko'makchi bog'lovchisi, *-u (-yu), -da, ham* yuklama bog'lovchilari mansubdir. Bulardan *ham* bog'lovchi vazifasida takror holda qo'llaniladi. *-u (-yu), -da* o'zi qo'shilayotgan so'zdan chiziqcha bilan ajratiladi, lekin uyushiq bo'laklar o'rtasiga vergul

qo'yilmaydi. Bunda mashqlar ham, berilgan topshiriqlar ham mavzuga mos va o'quvchi saviyasi hisobga olingan holda berilgan.

Ayiruv bog'lovchisi mavzusiga to'xtalganda, ikkinchi topshiriqqa e'tibor berib, avval o'quvchilardan fikrini so'rash va undan so'ng topshiriq shartini tushuntirilsa, maqsadga muvofiq bo'ladi. Masalan, o'quvchilarning hammasi ham yo...yo ayiruv bog'lovchisi goh...goh, dam...dam ayiruv bog'lovchilari bilan o'rni almashganda qanday ma'no anglatishini bilishi qiyin. Zidlov bog'lovchilari mavzusida berilgan 203-mashq o'zlashtirishi qiyin bo'lgan o'quvchilar uchun berilgan va bunda o'quvchilarga o'qituvchining va qoboliyatli o'quvchilarning sinfdoshlariga yordami bilan doska orqali tushuntirilganda sinf hamjihatligini mustahkamlashga ham erishilgan bo'lardi. Inkori bog'lovchisi berilgan mavzuda va boshqa mavzularda sof va vazifadoshlik tushunchasiga e'tibor berilishi lozim. Inkori bog'lovchisi mavzusini o'quvchilarga chuqur tushuntirilmasa, inkori yuklamasi mavzusiga kelganda o'quvchilarda tushunmovchiliklar yuzaga kelishi mumkin. Qoidada aytilgandek, gapning kesimiga e'tiborli bo'lish lozim.

Keyingi mavzu 64-dars mavzusi bog'lovchilarning tuzilishiga ko'ra yakka va takror holda qo'llanilishi tushuntirilgan. 65-darsda "Ergashtiruvchi bog'lovchilar" mavzusi berilgan. Unda qoida bilan birgalikda 212-mashqda jadval asosida ergashtiruvchi bog'lovchilarga mansub aniqlov, sabab, shart turlari berilgan. Bu mashqni sinfdagi faol o'quvchilar nafaol o'quvchilarga tushuntirishi ham maqsadga muvofiq. Keyingi 66-, 67-, 68-darslar ham shu masalaga bag'ishlangan. 68-darsda mazmuni mustahkamlash uchun jadval berilgan. 69-darsda esa "Bog'lovchilar" mavzusiga yakun sifatida mustahkamlash berilgan.

70-dars "Yuklama" mavzusiga bag'ishlangan va unga quyidagi ta'rif berilgan: So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, ayirish-chegaralash, gumon, o'xshatish, inkori kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi. Yuklamalarga: 1) *axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, naq, hech, sira, nahotki, na ... na* so'zlari; 2) *-mi, -chi, -gina (-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a* singari qo'shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi soʻz-yuklamalar, ikkinchi guruhi esa qoʻshimcha-yuklamalar sanaladi.

Bu qoidaga qoʻshimch sifatida yana jadval ham berilgan:

–soʻroq-taajjub yuklamalari: -mi, -chi, -a (-ya);

–kuchaytiruv-taʼkid yuklamalari: hatto, -ku, ham, nahotki, -u (-yu), -da, -oq (-yoq), axir, gʻirt;

–ayiruv-chegaralov yuklamalari: faqat, -gina (-kina, -qina), atigi;

–oʻxshatish-qiyoslash yuklamalari: goʻyo, goʻyoki, xuddi, naq;

–gumon yuklamasi: -dir;

–inkor yuklamalari: hech, sira, na... na.

Keyingi mavzularda yuklamaning turlari alohidalashtirib, mavzulashtirilgan. 71-darsda sof va vazifadosh yuklamalar berilgan. Bunga sabab esa oʻquvchilarning yuklamalarni, bogʻlovchilarni va koʻmakchilarni qaysi holatda qanday vazifada kela olishini anglatishdan iborat.

Shunday qilib, sof va vazifadosh yuklamalar mavzusiga quyidagicha taʼrif keltiriladi: -u,(-yu),-da yordamchilari oʻrniga va bogʻlovchisini qoʻyish mumkin boʻlsa, bogʻlovchi vazifasida, boshqa holatlarda yuklama vazifasida keladi. -da yordamchisi yuklama vazifasida kelganda, koʻpincha uning oʻrniga ham yuklamasini qoʻyish mumkin boʻladi. Ushbu mavzuga tegishli mashqlar oʻquvchilarni birozgina chalgʻitishi mumkin, chunki mashqlarda yuklamalarning bogʻlovchi vazifasida kelgan oʻrinlari ham koʻp. Masalan: U anchadan keyin oʻziga keldi-yu, tepasida xotini turganini, qizchalari yigʻlab turganini payqadi. (Oʻ.Hoshimov)

Keyingi dars mavzusi “Soʻroq-taajjub yuklamalari” boʻlib, juda qisqa bayonga ega. Undan keyingi mavzu “Ayiruv-chegaralov yuklamalari”dir.

Xulosa qiladigan boʻlsak, yordamchi soʻzlarning umumiy oʻrta taʼlim tizimida berilishida gʻalizlik kuzatilmaydi. Oʻquvchi yoshi va saviyasi inobatga olingan holda berilgan. Mashqlar, topshiriqlar ham maqsadli tanlangan. Faqatgina, yuqorida aytib oʻtganimizdek, ayrim nazariy maʼlumotlarga qoʻshimchalar kiritilsa, dars samaradorligi yanada oshgan boʻlar edi.

I.3.O'rta maxsus ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi

“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” qabul qilinishi bilan ta'lim tizimida jiddiy o'zgarishlar ro'y berdi. Natijada umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yilga keltirildi. Undan keyingi bosqich o'rta maxsus bilim va kasb-hunar kollejlari o'quvchilariga mo'ljallangan bo'lib, ushbu fan o'rta umumta'lim tizimidan farqli ravishda “Hozirgi o'zbek adabiy tili” deb ataldi[9]. Ushbu darslikka mo'ljallangan dasturda yordamchi so'zlar borasida o'quvchilar uchun quyidagi talablar ko'ndalang qilib qo'yiladi:

- a) yordamchi so'zlarning o'ziga xos xususiyatlarini tushuntirish;
- b) ko'makchilar va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntirish;
- c) bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlarini tushuntirish;
- d) bog'lovchilarning ma'no turlarini tushuntirish;
- e) bog'lovchilarning uslubiy xossalarini tushuntirish;
- f) yuklamalarning tasnifi;
- g) yuklamalarning uslubiy xususiyatlari;
- h) yuklamalarning bog'lovchilar bilan o'xshash va farqli xususiyatlarini tushuntirib berish.

Ko'rinadiki, ta'lim tizimining bu bosqichida asosan yordamchilarning uslubiy imkoniyatlari inobatga olingan.

Endi bevosita darslikning o'ziga to'xtaladigan bo'lsak, “ Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsligida yordamchi so'z turkumlari mavzusi 35-36-37-darslarda berilgan bo'lib, ikki soatga mo'ljallangan.

Yordamchi so'z turkumi “Hozirgi o'zbek adabiy tili” darsliklarining ikkinchi bosqichida berilgan bo'lib, ularga quyidagicha ta'rif berilgan: Leksik ma'nosini yo'qotib, grammatik ma'no ifodalashga o'tgan, ma'lum so'roqqa javob bo'lmaydigan so'zlar borki, bunday so'zlar yordamchi so'zlar deb yuritiladi. Yordamchi so'zlar mustaqil so'zlar bilan qo'shimchalar oralig'ida turgan

grammatik vositalardir. Masalan, Hammasini tinglardim, ammo o'xshashini topmasdim aslo.(H. Olimjon) Yordamchi so'zlarga ko'makchi, bog'lovchi va yuklamalar mansubdir: *Vatan uchun to'kkali yo'qmi bir qoshiq qoning?* (H.Olimjon) Yuqoridagi gapda *Vatan* so'zini *to'kkali* fe'liga grammatik va mazmuniy tomondan bog'lash maqsadida *uchun* yordamchisi ishlatilmoqda. Darslikda ko'makchilar quyidagicha ta'rif berilgan.:So'zlarning o'zaro grammatik va mazmuniy munosabatini ifodalash uchun ishlatiladigan yordamchi so'zlarga ko'makchilar deyiladi. Masalan: *Oyni etak bilan yopib bo'lmas.* (Maqol)⁴

Ko'rib turganimizdek, o'rta maxsus ta'lim darsligida ko'makchilarga maktab darsligida berilgan ta'rifga umuman o'xshamaydigan ta'rif berilgan. Yana ko'makchi haqida quyidagi fikrlar berilgan: Ko'makchilar tarixan mustaqil so'zlar bo'lib, hozirgi kunda leksik ma'nosini yo'qotgan va grammatik ma'no ifodalashga o'tgan so'zlardir. Mustaqil ma'nosini yo'qotish darajasiga ko'ra, ko'makchilar ikki guruhga bo'linadi: 1) sof (asl) ko'makchilar; 2) vazifadosh ko'makchilar.

Leksik ma'nosini tamoman yo'qotib, faqat grammatik ma'no ifodalashga o'tgan ko'makchilarga sof (asl) ko'makchilar deyiladi. Bunday ko'makchilarga *kabi, singari, bilan, birga, uchun, sayin, haqida, holda* kabi ko'makchilar kiradi. Leksik ma'nosini saqlagan holda, gapda grammatik ma'no ifodalash vazifasini bajaruvchi so'zlarga vazifadosh ko'makchilar deyiladi. Bunday ko'makchilarga *ustida (ish ustida), ostida (ozodlik bayrog'i ostida), oldida (vijdoni oldida), orasida, orasiga (xalq orasida), boshida (yo'l boshida), qarab (Toshkentga qarab yurmoq), bo'ylab (daryo bo'ylab)* singari ko'makchilar kiradi.

Vazifadosh ko'makchilar ko'maklashayotgan ot va fe'llardir. Shunga ko'ra bunday so'zlar mustaqil so'z vazifasida ham kelishi mumkin bo'ladi. Masalan, *kitob televizor ustida turibdi — televizor ustida janjallashdi. Devordan bo'ylab qaradi — Ariq bo'ylab ketdi* va h.k.

⁴ A. Nurmonov, A.Sobirov, Sh.Yusupova Hozirgi o'zbek adabiy tili. Akademik litsey va aksb-hunar kollejlarning II bosqich talabalari uchun darslik. T.: "ILM-ZIYO",2010. 195-bet.

Maktab darsligida sof va vazifadosh ko'makchilarga bundan ancha boshqacha ta'rif beriladi, masalan, vazifadosh ko'makchilarga "atash ma'nosini yo'qotgan" deya ta'rif berilgan bo'lsa, bunda "leksik ma'nosini saqlagan holda" deyilmoqda. Yoki sof ko'makchilarga asl nomi bilan almashtirsa bo'lishi qavs ichida berilgan. Shuningdek, vazifadosh ko'makchilarga "ko'maklashayotgan ot va fe'llardir" deya ta'rif beriladi.

Ko'makchilar bir mustaqil so'zni ikkinchi mustaqil so'zga tobelashtirib bog'laganligi uchun kelishik qo'shimchalari bilan bir xil vazifa bajaradi, shuning uchun sof ko'makchilarni ko'p hollarda kelishik qo'shimchalari bilan almashtirish mumkin bo'ladi. Masalan, *Bolalar bog'chasiga hadya qildim. Bolalar bog'chasi uchun hadya qildim. Mehnatsevarligidan xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Mehnatsevarligi uchun xalq o'rtasida obro'-e'tibor topdi. Dalaga ketdi — dala tomon ketdi.*

Kelishik qo'shimchalari bilan ko'makchilar o'rtasida mazmuniy umumiylik bo'lsagina biri o'rnida ikkinchisi kela oladi. Birinchi gapda har ikkisida atash ma'nosi, ikkinchi gapda sabab ma'nosi, uchinchisida yo'nalish ma'nosi mavjud. Ana shu umumiy ma'no ularning o'zaro almashinuviga imkon beradi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mazkur umumiy ma'noni qanday ifodalashda kelishik bilan ko'makchi ma'lum darajada bir-biridan farqlanadi. Kelishik qo'shimchasi orqali ifodalangan ma'no aniq, ko'makchi orqali ifodalangan ma'no esa umumiyroq, noaniqroq bo'ladi. Ayniqsa, bu farq yo'nalish ma'nosini bildirishda aniq seziladi. Solishtiring: *Samarqandga ketdi — Samarqand tomon(ga) ketdi.*

Ko'makchilar va qo'shimchalar ma'nodoshligi borasida ushbu darslikda faqat sof ko'makchilarning kelishiklar bilan almashtirib qo'lash mumkinligi aytiladi. Maktab darsligida faqatgina ayrim qo'shimchalar va ko'makchilarning o'zaro ma'nodoshligi berilgan edi. Bunda, albatta o'quvchilarning yosh xususiyatlarini va qabul qila olish darajalarini hisobga olingan bo'lsa ham ajab emas. Ammo bu darslikda maktab darsligida berilgan ba'zi masalalar chetda qolgan, masalan,

ko'makchilar bilan birga qo'llaniladigan qo'shimchalar masalasi. O'rta maxsus ta'lim darsligida berilgan ko'makchilar mavzusiga oid mashqlar ancha murakkabligi va chuqur saviyasi bilan maktab darsligidan farqlanib turadi, chunki bunday yoshdagi o'quvchi keng doirada fikrlay olish qobiliyatiga ega hisoblanadi. Bundagi mashqlarga qo'yilgan shartlarda barcha masalalar o'rta tashlangan, xususan, sintaktik, morfologik, uslubiy talablar, mantiqiy fikrlash va hokazolar. Masalan, 345-mashqda "Nuqtalar o'rniga zarur ko'makchilarni qo'yib, so'z birikmalari hosil qilib ko'chiring" deya shart qo'yilgan. Yoki 341-mashqda "Ko'makchilarni topib, o'zidan oldin kelgan so'zlar bilan birga ko'chiring va gapda qanday sintaktik munosabatlarni ifodalashini ayting" deyiladi. Yana 347-mashqda "Matn ichidan ko'makchilarni topib, qaysi so'z turkumidan keyin kelganini va turini ayting. Odatdagi shakldan boshqacha qo'llangan ko'makchilarning tagiga chizib, yozilishini tushuntiring, ular nutqning qaysi uslubiga xosligini ayting" deya shartlar qo'yilgan. Undan keyingida esa bog'lovchi mavzusi berilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, o'rta maxsus ta'lim darsliklarida yordamchilar mavzusida uslubiyatga alohida e'tibor berilgan, Biroq, nazamizda, yordamchilarning uslubiy xususiyatlari haqidagi qarshlarni yanada kengaytirish lozim.

Keyingi mavzu "Bog'lovchilar va ularning uslubiy xususiyatlari" deya nomlangan. Odatda maktab darsligida avval qoida keyin misol berilar edi. Bunda biroz farqli ravishda avval misol keltirilgan va izohlangan: *Hammasini tinglardim, ammo o'xshashini topmasdim aslo. Omon so'zlar va Zaynab qalbi tol bargiday dir-dir qaltirar. (H. Olimjon)* Keltirilgan gaplarning birinchisida ammo yordamchisi o'zaro zid ma'noli bo'lgan *tinglardim* gap bo'lagi bilan *o'xshashini topmasdim* bo'lagini; ikkinchi gapda va bir paytda ro'y berayotgan voqea haqida axborot beruvchi ikki gapni o'zaro bog'lash uchun qo'llangan.

Kuzatamiz: Ikki va undan ortiq gap bo'lagi yoki gaplarni o'zaro bog'lab keluvchi yordamchi so'zlarga bog'lovchilar deyiladi. Berilgan ta'rifga ko'ra maktab

darsligidagi qoidani eslaymiz, unda “gapda uyushiq bo’laklar va qo’shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog’lashga xizmat qiluvchi” deyilgan edi.

O‘zaro teng munosabatda bo‘lgan gap bo‘laklari, gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilar teng bog‘lovchilar hisoblanadi. Teng bog‘lovchilarga *va, hamda, ammo, lekin, biroq, yo, yoki, yoxud, yo... yo, goh... goh* singari bog‘lovchilar kiradi. O‘zaro tobe munosabatda bo‘lgan gap bo‘lagi va gaplarni bog‘lash uchun ishlatiladigan bog‘lovchilarga ergashtiruvchi bog‘lovchilar deyiladi. Bunday bog‘lovchilarga *chunki, sababli, tufayli, shuning uchun, shu bois (sabab, sababli), ya’ni, -ki* singari so‘zlar kiradi.

Teng bog‘lovchilar ham, ergashtiruvchi bog‘lovchilar ham o‘z ichida bir necha ma’no guruhlariga bo‘lingan. Bog‘lovchilarning har bir ma’no turiga bir necha bog‘lovchilar mansub. Har qaysi guruhga mansub bo‘lgan bog‘lovchilar bir-biridan uslubiy xoslanishga egaligi bilan farq qiladi.

Biriktiruvchi bog‘lovchi sifatida oddiy so‘zlashuv uslubida ko‘proq *bilan (minan)* ko‘makchisi ishlatiladi. *Va, ham, hamda* yordamchilari esa yozma nutq uslublari uchun xoslangan.

Zidlov bog‘lovchisi sifatida so‘zlashuv uslubi uchun *ammo, lekin* bog‘lovchilarining birikkan holidagi *ammo-lekin (ammolek)* shakli ko‘proq ishlatiladi. *Lekin* bog‘lovchisining *lek, vale (valekin)* shakllari ham badiiy uslub uchun xoslangan.

Ayiruv bog‘lovchilaridan *yoxud, yoinki* yozma nutq uslubi (publitsistik, badiiy uslub)dagina qo‘llaniladi. Aniqllov bog‘lovchilari faqat yozma nutq uslubida qo‘llaniladi.

Sabab bog‘lovchilaridan *chunki, shu sabab, shu tufayli* ko‘proq yozma nutq uslubida qo‘llaniladi.

Shart bog‘lovchilaridan *garchi* yozma nutq uslubi uchun xoslangan. Chog‘ishtiruv bog‘lovchilaridan *xuddi* uslubiy betaraf, *go‘yo* yozma nutq uchun

xoslangan. Shu o'rinda aytish kerakki, maktab darsligida xuddi, go'yo so'zlari yuklama bo'lishi ta'kidlanadi. Biroq mazkur darslikda bular bog'lovchi deb keltirilgan.

O'rta maxsus ta'lim darsligida teng bog'lovchilar uchta tarkibiy qismlarga bo'lingan, ya'ni biriktiruv, zidlov va ayiruv bog'lovchilari. Maktab darsligidagi inkor bog'lovchisi berilmagan. Ergashtiruvchi bog'lovchilarda esa aksincha, bu yerda aniqlov, sabab, shart bog'lovchilariga qo'shimcha ravishda chog'ishtiruv bog'lovchisi ishtirok etmoqda. Unga go'yo, go'yoki, xuddi kabi so'zlar kiritilgan.

Maktab darsligida sabab bog'lovchilariga chunki, negaki kabilar kiritilgan, bunda shuning uchun, shu sababli, shu tufayli kabilar sabab bog'lovchisi sifatida beriladi.

Endi berilgan mashqlarga to'xtaladigan bo'lsak, ular qoidaga mos va o'rinli. Masalan, 354-mashq uchun "Berilgan matnni o'qituvchi asta-sekin o'qiydi. Talabalar eshitganlari asosida faqat bog'lovchilarni daftarlariga yozadilar" kabi shart qo'yilgan.

Navbatdagi mavzu "Yuklamalar va ularning uslubiy xususiyatlari" mavzusi bo'lib, unda quyidagi fikrlar aytiladi: Yordamchi so'zlar deb yuritiluvchi guruh tarkibida shunday yordamchilar borki, ular so'z va gaplarni bir-biriga bo'lgan sintaktik munosabatini ifodalamaydi. Masalan, *faqat o'qishni o'ylaydi* jumlasidagi *faqat* yordamchisi *o'qishni* so'zini boshqalardan ayirib, bo'rttirib, ta'kidlab kelyapti. Shuning uchun ham bu jumla zahirida *boshqa narsani o'ylamaydi* degan ma'no ham yashiringandir. Ana shu yashirin ma'noga ishora *faqat* yordamchisi orqali seziladi. Agar mazkur jumla tarkibidan *faqat* yordamchisini olib tashlasangiz, yuqoridagi yashirin ma'no ham xiralashadi.

Yuklamalarning ko'pchiligi qo'shimcha shaklida, ayrimlari esa so'z shaklida qo'llaniladi. Ana shu belgisiga ko'ra yuklamalar ikki guruhga bo'linadi: 1. So'z yuklamalar: *faqat*, *hatto*, *nahotki* kabi. 2. Qo'shimcha yuklamalar: *-mi*, *-chi*, *-a* (*-ya*) kabi.

E s l a t m a: aslida, ikkinchi guruhdagi yuklamalar qo‘shimchalar ekan, ularni so‘z turkumlari tarkibida o‘rganish shartlidir, chunki so‘z turkumlariga bo‘linish uchun u, albatta, so‘z maqomiga ega bo‘lishi kerak. Yuklamalar quyidagi turlarga ega:

1. So‘roq-taajjub;
2. Kuchaytiruv-ta’kid;
3. Ayiruv-chegaralov;
4. Gumon;
5. Inkor.

Ammo maktab darsligida berilgan o‘xshatish-qiyoslash yuklamalari bu manbada uchramaydi.

Mashqlarga to‘xtaladigan bo‘lsak, ular qoidalariga mos, uslubiy, orfografik tomonlar hisobga olingan holda tuzilgan. Chunonchi, 359-mashqda “Gapga so‘roq, his-hayajon, taajjub, ta’kid, kuchaytiruv, ayiruv ma’nolarini beruvchi so‘z va qo‘shimchalarni topib, ularning ostiga chizing” kabi shart, 360-mashqda esa “Berilgan gaplarga o‘zingiz yuklamalar qo‘ying. Ularning gapdagi o‘rnini va vazifasini tushuntiring. Uslubiy jihatdan qanday qo‘shimcha ma’no berayotganligiga diqqat qiling” kabi o‘ziga xos shartlar va 362-mashqda yozuv qoidalarini nazarga olingan holda “-mi, -chi, -a, -ya, -ku, -ham, -u (-yu) -da, -oq, -yoq, -ki (-kim), axir, hatto, nahotki, -gina (-kina, -qina), faqat, naq, na yuklamalari ishtirokida gaplar tuzing, ularni imlo qoidalariga rioya qilib yozing” kabi shartlar qo‘yilgan.

Xullas, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus ta’lim tizimida foydalaniladigan darslik dastur bilan muvofiq tuzilgan. Undagi nazariy fikrlar asosli. Biroq mashqlar tarkibini yanada boyitish bugingi kun uchun o‘ta muhim deb o‘ylaymiz. Qolaversa, dars mashg‘ulotlarini o‘tish jarayonida o‘qituvchidan izlanish, ijodkorlik, yuqori saviyadagi bilim talab etiladi.

II bob

Yordamchi soʻzlarni oʻrta umumtaʼlim tizimida oʻtish metodikasi

II.1. Koʻmakchilarni umumtaʼlim tizimida interfaol usullarda oʻtish

Yordamchi soʻzlar haqida yuqoridagi bobda nazariy maʼlumotlar berib oʻtdik. Joriy bobda yordamchi soʻzlarning oʻrta umumtaʼlim maktab darsliklaridagi ifodasini koʻrib chiqamiz. Xususan, 5-sinf darsligida yordamchi soʻzlar uchun 4 ta dars ajratilgan boʻlib, u 88-91-darslarni oʻz ichiga oladi. Unda qoida quyidagicha berilgan: Biror soʻroqqa javob boʻlmay, gap yoki gap boʻlaklarini bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan soʻzlarga yordamchi soʻzlar deyiladi. Birinchi darsda umumiy maʼlumotlar berilgan boʻlib, topshiriq va mashqlar oʻquvchilarning saviyasiga mos berilgan. Xususan, oʻquvchilarni yoʻnaltiruvchi mashqlar birinchi topshiriq va 290-291-mashqlarda oʻz ifodasini topgan. Keyingi darslarda yordamchi soʻzlarning turlari haqida maʼlumot beriladi. 89-dars bogʻlovchi mavzusiga bagʻishlangan boʻlib, quyidagi qoida asosida beriladi: Uyushuq boʻlaklarni va qoʻshma gap tarkibidagi sodda gaplarni bir-biriga bogʻlash uchun xizmat qiladigan yordamchi soʻzlar bogʻlovchi sanaladi.

Topshiriq va mashqlar ham oʻylantiruvchi xususiyatga ega boʻlib, murakkablashib boradi. Keying darsda koʻmakchilar haqida maʼlumot beriladi. Taʼkidlash joizki, hozirda ona tili taʼlimining maqsadi ijodiy tafakkur sohibini tarbiyalash ekan, darslar noanʼanaviy va interfaol usullardan foydalanib tashkil qilinishini taqozo etadi. Aynan darslikdagi mashqlar shu maqsadga qaratilgan boʻlib, topshiriqlar oʻquvchilarning ijodiy yondashishini talab etadi. Koʻmakchilar qoidasida ularning koʻpincha otlarni feʼlga bogʻlab kelishi taʼkidlangan. Masalan: Shahar tomon ketdi. Daryo boʻylab yurdi.

Baʼzan otni ot, sifat va ravishlarga tobelashtirib bogʻlaydi. M: ona kabi mehribon. Koʻmakchilarning boshqa maʼno turlari topshiriq va mashqlarda aks etadi. 91-darsda yuklamalar haqida maʼlumot berilib, unda ayrim gap boʻlagi yoki butun gapning mazmuniga qoʻshimcha maʼno yuklash uchun xizmat qiluvchi soʻzlarga yuklama deyiladi deb taʼrif berilgan. Bundan tashqari yuklamalarning

soʻz - yuklamalari va qoʻshimcha – yuklamalarga boʻlinishi taʼkidlangan. Soʻz yuklamalar oʻzi qoʻshilayotgan soʻzdan doimo ajratib yoziladi. Qoʻshimcha-yuklamalar esa oʻzi qoʻshilayotgan soʻzga qoʻshib yoki undan chiziqli bilan ajratilib yoziladi. Darslikda yuklamalarning punktuatsion qoidalari ham yoritilgan: sen-chi, keldi-yu ketdi, ayt-chi. 301-mashq oʻquvchilarning ijodiy yondashishni talab etib, mavzu mohiyatini chuqurroq anglashga yordam beradi.

7-sinf darsligida yordamchi soʻzlar mavzusiga 5-sinfga nisbatan koʻproq soat ajratilgan boʻlib, bunda har bir yordamchi soʻzlarning maʼno turlari haqida maʼlumotlar berilgan. Mavzular 46-76-darslarni oʻz ichiga oladi. Dastlab mustaqil soʻz turkumlari va yordamchi soʻz turkumlarining asosiy farqlari aytiladi. Qoidalar va topshiriqlar ham oʻquvchilar saviyasiga mos ravishda murakkablashib boradi. Darslikda koʻmakchilar mavzusi quyi sinfga nisbatan chuqurroq berilgan. Keyingi mavzular koʻmakchilarning maʼno turlariga bagʻishlangan boʻlib, dastlab ularning sof va vazifadosh koʻmakchilarga boʻlinishi taʼkidlanadi va misollar bilan tushuntiriladi. Sof koʻmakchilar atash maʼnosini tamoman yoʻqotib, faqat oʻzi birikkan soʻzni boshqa soʻzga tobelantirib bogʻlash uchun xizmat qiladi. Masalan: bilan, sari, sayin kabilar. Bundan tashqari qoida tarkibida sof koʻmakchilarning urgʻu bilan bogʻliq jihatlari ham yoritilgan. Keying darslarda vazifadosh koʻmakchilar haqida maʼlumotlar berilib, ular bilan bogʻliq mashqlar ketma-ketlikda murakkablashib boradi. Har bir yordamchi soʻz mavzularidan soʻng mustahkamlash darslari berilgan. Bu oʻquvchilar bilimini oshirish uchun muhim. Savol va topshiriqlarning qiziqarliligi va murakkabligi oʻquvchilarni ijodkorlikka chorlaydi. 56-dars bogʻlovchilar mavzusiga bagʻishlangan. Keyingi darslarda bogʻlovchilarning vazifasiga koʻra turlari haqida maʼlumot beriladi. Ular quyidagi qoida asosida berilgan: vazifasiga koʻra bogʻlovchilar teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilarga boʻlinadi. Mashqlar tarkibida oʻquvchilarga tushunarli boʻlishi uchun jadval tarzidagi topshiriqlar berilgan boʻlib, bunda oʻquvchilar matn tarkibidan qoidaga muvofiq teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilarni topishlari kerak. Keyingi darslarda teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilarning maʼno turlari haqida maʼlumot beriladi.

Bog'lovchilarning har bir guruhi alohida mavzu sifatida berilib, mashqlar tarkibida mustahkamlanib boriladi. 70-dars yuklamalarga bag'ishlangan. Yuklamalarning ma'no turlari jadval asosida berilgan bo'lib, punktuatsion jihatlari qoidalarda yoritilgan.

Ona tili ta'limi jarayonida maqsadga muvofiq ravishda o'quvchilarning ijodiy tafakkurini boyitish, bilim salohiyatini oshirish va nutqiy savodxonlikni oshirish ustuvor vazifalardan sanalar ekan, har bir mavzu o'tilishi jarayonida bunga alohida e'tabor berish kerak. Yordamchi so'zlar ham o'quvchilarning nutqiy faoliyatida muhim o'rin egallaydi.

Ma'lumki, yordamchi so'zlar haqidagi ilk ma'lumotlar boshlang'ich sinflarda beriladi. Yuqori sinflarda takrorlanadi va chuqurlashtiriladi. Buning isbotini yuqoridagi maktab darsliklari tahlilida ko'rib o'tdik. 7-sinfda gaplarni gap bo'laklariga ajratish, mustaqil holda gap bo'lib kela olmaydigan so'zlar ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni mustaqil davom ettirish va gaplar tuzish o'quvchilarning bilimini kengaytirishga xizmat qiladi. [8,72].

Yordamchi so'zlarning muhim qismini ko'makchilar tashkil etadi. Tilimizda bilan, uchun, sari, kabi, sayin, qadar, tomon, boshqa, sababli, orqali, tufayli, qaramay, tashqari, uzra kabi so'zlar borki, nutqiy faoliyat uchun ularning ahamiyati benihoya katta. Mazkur mavzuni o'rganishda berilgan gaplar yoko matndan ajratilgan so'zlarni kelishik qo'shimchalri bilan almashtirish, masalan: bu kitobni singlim uchun oldim/bu kitobni singlimga oldim; telefonda gaplashmoq/telefon orqali gaplashmoq kabi misollarda o'quvchilar kelishiklar va ko'makchilarning sinonimlik hosil qilishini bilib oladilar. Ko'makchilarning ma'no turlarini alohida ro'yxat qilish, ma'lum bir ko'makchini uning sinonimi bilan almashtirish, gaplarda bilan so'zini va, yoki kelishiklar bilan almashtirish, bu so'zning qaysi holatda ko'makchi va qaysi holatda bog'lovchi bo'lib kelishini aniqlash kabi amaliy ishlardan foydalansa bo'ladi.

Yordamchi soʻzlarning yana bir muhim qismini bogʻlovchilar tashkil qiladi. Bu soʻzlarni oʻquvchilarning nutqiy faoliyatiga olib kirish uchun sodda gap juftlarini oʻzaro biriktirib, bitta gapga aylantirish, ularning oʻzaro bogʻlanish vositalarini aniqlash, juft va yakka bogʻlovchilarni alohida guruhlariga ajratish, teng va ergashtiruvchi bogʻlovchilar roʻyxatini tuzish, ular yordamida gaplar qurich, matn yaratish kabi amliy ishlardan foydalanish maqsadga muvofiq. Mazkur mavzuni oʻrganishda ohang va bogʻlovchilarning oʻzaro vazifadochligini unutmaslik kerak.

Yordamchi soʻzlarning yana bir katta guruhini yuklamalar tashkil etadi. Bu guruhdagi soʻzlarni oʻrganishda berilgan gaplarni oʻzaro qiyoslab, maʼno farqlarini, bu farq nima bilan berilayotganligini aniqlash lozim. Masalan: gullarga suv berdim/gullarga suv berdim-ku. Aziza raqs toʻgaragiga qatnashadi/ faqat Aziza raqs toʻgaragiga qatnashadi/Azizagina raqs toʻgaragiga qatnashadi. Berilgan yuklamalarning maʼnosiga koʻra guruhlariga boʻlinishi ham muhimdir.

Oʻquvchilarning nutqiy salohiyatini oshirishda dars davomida turli interfaol metodlardan foydalanilsa, maqsadga muvofiq boʻladi. Ayniqsa, hozirgi zamonda yangi pedagogik texnologiyalar afzalligi zamon sinovidan oʻtib interfaol darsning sifat va samaradorligini oshirishda muhim omil ekanligi oʻz isbotini topmoqda. Bu borada ancha-muncha tajriba toʻplagan tadqiqotchilar pedagogik texnologiya darsining muvaffaqiyatlarini kafolatlovchi omil ekanligini taʼkidlab, pedagogok jarayonlarni ilmiy loyihalashtirish, uni amalga oshirish xususidagi oʻz fikr-mulohazalarini ommaning diqqat-eʼtiboriga havola etmoqdalar. Quyida yordamchi soʻzlarni dars jarayonida qanday interfaol metodlardan foydalanib tashkil qilish mumkinligi haqida fikr yuritamiz.

Yordamchi soʻzlar mavzusini oʻrganish davomida oʻquvchilarga yordamchi soʻzlarning grammatik maʼnolarini oʻrgatish, nutq jarayonlarida oʻrinli foydalanishni shakllantirish asosiy maqsaddir. Darsni tashkil etishda “Aqliy hujum”, “Oʻrnida qoʻlla”, “Kim topqir”, “Tinglashni oʻrgan” kabi metodlardan foydalanish mumkin. Mavzuni oʻtishda sinf oʻquvchilarining 3 guruhga boʻlinishi: koʻmakchi, bogʻlovchi, yuklama deb guruhlariga nom berilishi darsning

qiziqarliligini ta'minlaydi. Bundan tashqari darsning tarbiyaviy sifatini oshirish va shu bilan birgalikda ta'limiy maqsadga ham erishish uchun ko'makchilar ishtirok etgan maqollardan foydalanish juda samaralidir. Masalan: *Dono sari intilsang, dono bo'larsan. Shirin so'z bilan ilon inidan chiqar. Hosil uchun yer hayda. Yordamchi so'zlar ishtirok etgan maqollarning birinchi qismi aytilib, keyingi qismi boshqa guruhlar tomonidan topilishi o'quvchilarni sezgirlikka chorlaydi. Dars mobaynida maqollar izohlansa, darsning tarbiyaviy maqsadiga ham erishiladi.*

Bundan tashqari "O'rnida qo'lla" o'yinidan ham mavzuni o'rganishda foydalanish mumkin. Bunda guruhlariga pastida chizmalı topshiriqlar berilgan rasmlı kartochkalar tarqatiladi. O'yin shartiga ko'ra har bir guruh o'ziga berilgan rasm asosida yordamchi so'zlardan foydalangan holda ijodiy matn tuzishi va ushbu matn tarkibidagi uchta gap rasm pastida berilgan chizmaga mos kelishi kerak. Darsning mustahkamlash qismida test topshiriqaridan foydalanish mumkin.

Bundan tashqari yordamchi so'zlarning o'quvchilar nutqida o'rinli foydalanishni ta'minlash uchun ko'proq ijodiy matnlar bilan ishlansa ham maqsadga muvofiq bo'lardi. Ona tili va adabiyot darslarini bo'liqlikda tashkil etish uchun yordamchi so'zlarni badiiy matn parchalaridan topish ham o'quvchilarning ham badiiy tafakkurini, ham sezgirligini oshirishga xizmat qiladi.

Yordamchi so'zlar haqida umumiy ma'lumotlar 5-sinfda beriladi. 7-sinfda esa mavzu chuqurlashtiriladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, yordamchi so'zlarning ma'no guruhları va uslubiy xususiyatlari tahlil qilinadi. Maktabda yordamchi so'zlarni o'tishda darsni qiziqarli va tushunarli tashkil etish uchun turli interfaol usullardan foydalanish, albatta, ham zamon talabi, ham ta'lim maqsadiga muvofiqdir. Bundan tashqari ona tili darslarini ingliz tili bilan bog'lab o'tish ham dara samaradorligini oshiradi. Quyida ko'makchilarni interfaol usulda ingliz tili bilan bog'liq ravishda o'tilishini bir soatlik dars mazmunnomasi misolida ko'rishimiz mumkin.

Fan: Ona tili.

Sinf: 7

Mavzu: Ko'makchilar.

Vaqt: 45 daqiqa.

DTS asosida o'quvchilarning o'zlashtirishi lozim bo'lgan BKMLari:

- Ko'makchilar haqida ma'lumot;
- Ko'makchilarning qoidasi
- Ko'makchilarning vazifasiga ko'ra turlari;
- Sof ko'makchilar;
- Vazifadosh ko'makchilar
- Ko'makchilar bilan bog'liq so'z birikmalari va gaplar tuzish.

Dars shiori: Bilim qayda bo'lsa, buyuklik bo'lar!

Darsdan ko'zlangan maqsad:

a) ta'limiy:

- Ko'makchi haqida tushuncha berish;
- Nazariy bilimlarni mashqlar orqali mustahkamlash.

b) tarbiyaviy:

- O'quvchilarni insonparvarlik va mehnatsevarlikka o'rgatish;
- O'quvchilar orasida o'zaro hurmat hissini singdirish.

c) rivojlantiruvchi:

- O'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish;
- Amaliy mashqlar orqali yozma nutqni o'stirish.

Dars uslubi: Aralash, og'zaki va yozma.

Dars usuli: interaktiv, alfabingo, "Yosh ijodkor" metodlari.

Darsda foydalaniladigan jihozlar:

- Ko'makchilar mavzusi bilan bog'liq ko'rgazmali materiallar;
- No'xat, loviya, qovoq urug'lari va qo'lda tikilgan qopchalar;
- Kodoskop;

- Kompyuter, videoproektor va mavzularga oid slaydlar.

Darsning qisqacha rejasi:

Darsning bosqichlari	vaqti
1. Kirish qism	4 daqiqa
2. Uyga vazifalarni so'rash	3 daqiqa
3. O'tilgan mavzuni takrorlash	5 daqiqa
4. Yangi mavzu bayoni	10 daqiqa
5. Topshiriqlar bo'yicha ishlash	5 daqiqa
6. Mashqlarni bajarish □	5 daqiqa
7. Qoshimcha o'yinlar	5 daqiqa
8. Ballarni hisoblash	3 daqiqa
9. Uyga beriladigan topshiriqlar	3 daqiqa
10. Xulosalash	2 daqiqa.

Fanlar aro bog'lanish: adabiyot, vatan tuyg'usi, ingliz tili.

Baholash mezonlari:

- Har bir to'g'ri va to'liq javob uchun bitta qovoq urug'i;
- Biroz yanglishishlar bo'lsa bitta no'xat urug'i;
- Javob berishda xatoliklarga yo'l qo'yilsa bitta loviya urug'lari.

Dars o'tkazish jarayoni boshlangunga qadar darsga oid slaydlar, ko'rgazmali qurollar oldindan tayorlab qo'yilishi kerak. O'quvchilar uchta kichik guruhlariga ajratilishi lozim.

Darsning kirish qismi. Salomlashiladi. O'qituvchi: good morning my pupils. Assalomu aleykum, mening aziz o'quvchilarim, xo'sh bugun sinfda kim navbatchi?

Who is on duty today?

O'quvchi: I am on duty today in our classroom. Bugun sinfimizda men navbatchi.

O'qituvchi: okey, thank you. Yaxshi, bugun kim yoki kimlar darsda ishtirok etmayapti? Who is absent today?

O'quvchi: Ahmad is absent today. Bugun darsda faqat Ahmad ishtirok etmayapti.

O'qituvchi: Yaxshi, demak, bugungi darsimiz?

O'quvchilar: Ona tilim- onajonim tili bu,

Beshikdanoq singgan jon-u quloqqa

El-u yurtim, xon-u monim tili– bu

Qadimlikda o'xshar ona tuproqqa.

O'qituvchi: Tushunarli, demak, biz o'quvchilarni guruhlariga ajratib olganmiz, ularga shartli ravishda nomlar beramiz:

1-guruh “Yosh tilchilar”

2-guruh “Vatan g'unchalari”

3-guruh “Barkamol avlod”

O'qituvchi: Guruhlarni nomlab oldik, endi o'tilgan mavzuni bir takrorlab olamiz . O'tilgan mavzuni kim menga aytadi?

O'quvchi: biz o'tgan mavzuimizda yordamchi so'zlar haqida umumiy bilimlarga ega bo'lgan edik.

O'qituvchi: juda ham soz, hozir uchala guruhga ham topshiriq beriladi. Qaysi guruh tez va to'liq bajarsa, yaxshi baholarga ega bo'ladi. Mana bu qo'limda “quvnoq kartochkalar” bor va unda qoida chala holatda berilgan. Smayllar o'rniga javoblar yashiringan. Unutmang, smayllar soni nechta bo'lsa, yashiringan so'zlar soni o'shancha. Vaqt ketdi o'quvchilar, 3 daqiqa vaqt.

- 1- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: so'zlar ma'lum so'roqqa javob bo'lish yoki bo'lmasligi; atash ma'nosining mavjudligi yoki mavjud emasligiga, gapda biror gap bo'lagi bo'lib kelish, kelmasligiga ko'ra ... ga bo'linadi.
- 2- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: ... lar ma'lum so'roqqa javob bo'ladi.
- 3- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: Mustaqil so'z turkumlari: ...lar atash ma'nosiga ega, ... esa bundan mustasno, u atash ma'nosiga ega emas.
- 4- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: ... borliqdagi shaxs-narsalarning, voqea-hodisalarning nomini bildiradi.
- 5- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: ... va ...lar shaxs-narsalarning, voqea-hodisalarning belgilarini bildiradi.
- 6- Quvnoq tarqatma savoli quyidagicha: yordamchi so'zlarga ... lar kiradi.

O'quvchilar javoblari urug'lar orqali baholanadi.

Uyga berilgan topshiriqlarni partalar joylashuvida T harfi shaklida tekshirib chiqiladi. Ya'ni uch qator oxiridagi partalar va o'rta qatordagi o'quvchilardan tekshiriladi.

O'qituvchi: yaxshi o'quvchilar, endi yangi mavzuimiz bayoniga o'tamiz. Avval guruhlardan o'quvchilar bilan topshiriqlar ustida ishlaymiz.

O'quvchi 1-topshiriq shartini o'qiydi: quyidagi gaplarda ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qaysi so'z bilan birgalikda qo'llanganini aniqlang.

1. Ish bilan ovvora bo'lib, kunning o'tganini ham bilmay qolasan kishi. (Z. Fathullin)
2. Qish qo'ynidan baxt singari yoz uchib kelur. (Mirtemir)

2-topshiriq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlar qanday vazifa bajarayotganini izohlashga harakat qiling.

O'quvchilar guruhlar aro baholanadi, urug'lar belgilangan xaltachalarga joylanadi.

O'qituvchi: demak, o'quvchilar topshiriqlardan chiqarilgan xulosalarni umumlashtiramiz va qoidaga e'tibor beramiz.

Doskada slayd orqali qoida namoyish etiladi.

O'qituvchi: birinchi topshiriqda berilgan “ Ish bilan ovora bo'lmoq” so'z birikmasida hokim so'z ovora bo'lmoq , tobe so'z ish.

Ish so'zi o'z navbatida ot so'z turkumiga oid. Qoidaga e'tibor qilamiz:

Ot, olmosh, harakat nomi va sifatdashlardan so'ng kelib, ularni hokim so'zga bog'lash uchun xizmat qiluvchi bilan, uchun, kabi, singari, orqali, sayin kabi so'zlar ko'makchi hisoblanadi. Demak, topshiriqda berilgan Ish bilan ovora bo'lmoq va qish singari uchib kelur birikmalarida hokim so'zni tobe so'zga bog'lab keluvchi yordamchilar bilan va singari so'zlari ko'makchilar ekanligini bilib oldik, endi mavzuni mustahkamlash uchun berilgan mashqlarga ahamiyat beramiz.

159-mashq orqali “muammoli vaziyat” yaratamiz. Bu mashqda berilgan gaplarda ko'makchilar bor, ammo ular mustaqil so'z turkumlariga oid so'zlar kabi bilinmay turibdi. Masalan, mashqdagi 4-gapni olaylik: Mirzo Ulug'bek suyukli jadvali ustida ishlashni istar edi.(O.Yoqubov) 5-gapda esa Onam stol ustini tartibga solar, karavot qoshidagi kiyimlarni olib,qoziqqa ilar edi. (Sh. Xolmirzayev) gaplarida ust so'zi ishtirok etgan. Bu so'zlardan bittasi ko'makchi vazifasida kelmoqda. U qaysi gapda ekanligini toppish esa muammo. O'quvchilar berilgan mashqdagi bu kabi muammolarni yechishlari lozim.

Bajarilgan mashqlar baholanadi va mashqni bajarish davomida tug'ilgan ba'zi noaniqliklarga aniqlik kiritish maqsadida keyingi qoida tushuntiriladi.

Qoida: sof ko'makchilar bilan bir qatorda ayrim so'zlar ko'makchi vazifasida qo'llaniladi va ular vazifadosh ko'makchilar sanaladi.

159-mashqdagi birinchi gapda “ Avval o’yla, keyin so’yla”, ikkinchi gapda “Bu kitob qo’liga tushgandan keyin, bosh ko’tarmay mutolaaga tushdi” deyilgan. Ushbu gaplarda keyin so’zi qo’llangan. Bu so’z aslida payt ma’nosida qo’llanilib, ravish so’z turkumiga oid va u qachon? so’rog’iga javob bo’ladi. Birinchi gapga so’roq beramiz: Qachon so’yla? Keyin.

Demak, bu yerda keyin so’zi mustaqil so’z turkumi. Endi ikkinchi gapga so’roq beramiz: qachon mutolaaga tushdi? Kitob qo’liga tushgandan keyin. Bu gapda keyin mutolaaga tushdi, deyilsa javob noto’liq bo’lib qolmoqda. Ana shuni hisobga olib xulosa qilsak, ko’makchi vazifasida keladigan so’z o’zi bog’lanib kelgan so’z bilan birgalikda so’roqqa javob bo’lar ekan.

O’qituvchi: davom etamiz o’quvchilar! Navbatdagi mashqni “ Alfabingo” va “ Davom ettir” o’yinlari orqali bajaramiz. Bunda men hozir alifbodagi harflar yozilgan kartochkalarniguruhlarga tarqataman. Dorskaga qaysi harfni yozsam, o’sha harf yozilgan kartochka egasi hikoyani ko’makchilarni qatnashtirgan holatda davom ettiradi, tushunarlimi. Etibor bering, Tuzgan gapingizda ko’makchi, albatta, ishtirok etishi shart!

Bunga biz 5 daqiqa vaqt ajratamiz. Demak, boshladik, vaqt ketdi!

Namuna: (O’qituvchi boshlab beradi) Kitob degan shaharga Omonboy ismli bola butun oilasi bilan ko’chib kelibdi.

A harfi doskaga yoziladi.

O’quvchi: Omonboy shu yerdagi maktab yaqinida yashay boshladi.

J harfi doskaga yoziladi.

U tez orada maktab o’quvchilari orasidan do’stlar orttiribdi, ular bilan inoqlashib ketibdi.

H harfi yoziladi.

O’quvchi: Do’stlari Davronboy, Komilbek kabi bolalar edi.

Vaqt tugaganda o'yin to'xtatiladi va urug'lar yordamida guruhlar baholanadi.

161-mashq qoidasi o'qituvchi tomonidan o'qib eshittiriladi, tushuntirildi. Duskaga past o'zlashtiruvchilar chiqariladi, qolganlar daftarga 3 daqiqa ichida bajarilishi aytiladi.

Mashqni eng birichi bajargan har bir guruhdan 2 kishidan baholanadi.

Shunga qarab guruhlar ham baholanadi.

Duskaga chiqqan o'quvchilar ham rag'batlantirib qo'yiladi.

Uyga vazifa beriladi. Uyga vazifa:

O'qituvchi: 162-mashq “ Vatanimda qish “ mavzusida ko'makchilardan foydalanib hikoya yozib kelish. Shuningdek qo'shimcha ravishda ko'makchilar qatnashgan 4 qator sher yod olib keling. Kim uyga topshiriqni to'g'ri va to'liq bajarib kelsa, o'sha o'quvchini mukofot bilan taqdirlayman.

Demak, ballarni hisoblaymiz.

Har bir guruh xaltachalaridagi urug'lar saralanadi va g'olib guruh aniqlanadi. Shuningdek darsda ko'p qatnashgan o'quvchilarga rag'bat yulduzchalari beriladi. Darsda qatnashmaganlar ogohlantiriladi.

Dars o'quvchilar tomonidan xulosalanadi.

Demak, ko'makchi mavzusini o'tish davomida dars topshiriqlari bilan birga, o'qituvchi tomonidan tuzilgan turli interfaol usullar ham dars samaradorligini oshirishda qo'l kelishini unutmasligimiz kerak.

II.2. Bog'lovchilarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

Yordamchi soʻzlar tizimida bogʻlovchilar ham muhim oʻrin tutadi. Fikrimizcha, har bir yordamchi soʻzlarni dars davomida oʻtishda ularning nomlanishidan kelib chiqib tushuntirilsa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Xususan, bogʻlovchi-bogʻlaydi, koʻmakchi-koʻmaklashadi, yuklama-yuklaydi, deb misollar keltirilsa, mavzu mohiyatining anglanishi osonroq kechardi. Misol: ona bilan bola, gul bilan lola. Bogʻlovchilarning sodda gaplarni bogʻlashiga misol: Bizning vazifamiz oʻqish va Vatanga munosib farzand boʻlish. Aynan mana shu misollar orqali oʻquvchilarga bogʻlovchilarning bogʻlash funksiyasini tushuntiriladi. Oʻquvchilarga dars jarayonida sof va vazifadosh bogʻlovchilarni tushuntirish ham muhim sanaladi. Ushbu mavzuni oʻtishda turli interfaol usullardan, jumladan, "Venn diagrammasi", "Kim chaqqon" oʻyinidan foydalanish mumkinki, bu oʻqituvchining ijodkorligiga ham bogʻliqdir. Quyidagi dars ishlanmasi yuqoridagi fikrimizga misoldir.

Fan: Ona tili

Sinf: 7

Sana:

Mavzu: Sof va vazifadosh bogʻlovchilar.

Vaqt: 45 daqiqa.

Darsning qisqacha rejasi:

Mavzu: Sof va vazifadosh bogʻlovchilar.

Kirish qism: 3 daqiqa

Uyga vazifalarni soʻrash:

Oʻtilgan mavzuni takrorlash:

Yangi mavzu bayoni:

Topshiriqlar, mashqlar, mustahkamlash:

Ballarni hisoblash va taqdirlash:

Uyga vazifa:

Xulosalash:

Dars shiori: Tilga ixtiyorsiz-elga e'tiborsiz.

Darsning maqsadi:

a) Ta'limiy:

- Sof va vazifadosh bog'lovchilar haqida bilim berish.
- Yangi bilimlarni mashqlar orqali mustahkamlash.
- Zamonaviy usullar orqali o'quvchilarga yangi bilim berish.

b) Tarbiyaviy:

1. O'quvchilarda o'zaro bir-biriga mehr tuyg'ularini shakllantirish,
2. Vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
3. Mustaqillik nima ekanligini anglatish.

c) Rivojlantiruvchi:

1. O'quvchilarning yozma nutqini o'stirish.
2. O'quvchilarning og'zaki nutqini o'stirish.
3. O'z-o'ziga ishonish tuyg'ularini shakllantirish.

Dars uslubi:

Dars usuli:

Dars materiallari va jihozlari:

Fanlar aro bog'lanish: adabiyot, ingliz tili, vatan tuyg'usii, rus tili.

Baholash mezonlari: sariq, yashil, qizil rangli yaltiroq tangachalar.

A'lo javob berganlarga qizil rangli tanga, o'rtacha javob berganlarga yashil, qoniqarsiz javob berganlarga sariq.

O'quvchilar ikki guruhga ajratilgan bo'lishi, darsga hamma narsa tayyor bo'lishi shart.

Tashkiliy qism 5 daqiqa:

- a) Sinfda partalar aylana shaklida joylashtiriladi.
- b) O'quvchilar bilan salomlashiladi.
- c) Sinf tozaligiga e'tibor qaratiladi.
- d) Davomat aniqlanadi,
- e) Dunyoda bo'layotgan madaniy-ma'rifiy yangiliklardan aytiladi.

O'qituvchi: Assalomu aleykum, o'quvchilar, bugungi sanamiz ... va darsimizning nomi? (bir o'quvchi turib):

Buyuk Temur jahon bo'ylab

O'z dovrug'in solgan tilim

Mir Alisher bobomlardan

Meros bo'lib qolgan tilim.

(ikkinchi qatordan ikkinchi o'quvchi aytadi):

Bobur Mirzo she'rlaridan

Rang va qiyos olgan tilim

Shunday tildan tonar bo'lsam,

Qiyma-qiyma bo'lsin tilim.

(uchinchi qatordan uchinchi o'quvchi aytadi):

Alla bo'lib jaranglagan

(barcha o'quvchilar baravar aytadi):

Alla bo'lib jaranglagan,

Ona tilim— jon-u dilim!

O'qituvchi: juda yaxshi, endi o'quvchilarimizning darsga to'liq ishtirok etayotganlariga ishonch hosil qilib olamiz. (navbatchi davomat haqida aytadi).

O'qituvchi o'quvchilardan dunyoda va vatanimizda ro'y berayotgan madaniy-ma'rifiy yangiliklardan xabardormisiz, deb so'raydi.

O'quvchilar yangiliklar aytishadi.

O'qituvchi: Juda ham yaxshi! Ana endi, o'quvchilar, biz o'tgan mavzuyimizni bir takrorlab olamiz. Men sizlarga hikoyali bosh qotirmani o'qib eshitiraman. Siz uni yechishga harakat qilasiz.

Hikoyali bosh qotirma

Grammatika shahrida Bog'lovchi nomli maktabning aqlli va ishbilarmon direktori bo'lib, uni barcha o'qituvchi va o'quvchilar juda hurmat qilishar edi.

Maktab direktorining ismi ham maktab nomiga monant Bog'lovchibekov Dengiz edi.

Direktorning qo'lida barcha fanlar qatori ona tili fanidan to'rtta o'qituvchisi bo'rdi. Ular: Birikturuvxon, Zidlovchixon, Ayiruvbek va Inkorbeklar edi.

Buni qarangki, Zidlovchixon Ayiruvbek va Inkorbekni bir-biriga zidlab, urishtirib qo'yar, Birikturuvxon esa ularni murosaga keltirolmay xunob bo'lar ekan. Ohiri u o'ylab-o'ylab direktordan maslahat so'rabdi. Direktor aqlli bir tadbir qo'llabdi ularni bitta auditoriyaga yig'ib, o'quvchilarni ham yig'ib bitta mavzuni to'rttalangiz o'quvchilarga tushuntirasiz, debdi. Mavzu esa bunday edi " Teng bog'lovchilar ".

O'qituvchilar: Birikturuvxon, Zidlovchixon, Ayiruvbek va Inkorlar hammasi bir katta matn tuzishibdi. Shu matn qanday ekanligini guruhlar birga 3 daqiqa ichida tuzib aytib berishlari kerak. O'quvchilar muhimi to'rttala o'qituvchilarning matnda ishtirok etishi shart, tushundingizmi vaqt ketdi.

Guruhlar 3 daqiqa ichida teng bog'lovchilar ishtirok etgan matn tuzishadi. Qaysi guruhning matnida gaplar soni ko'p o'lsa, mazmun bog'langan bo'lsa, Grammatik xatolarga yo'l qo'yilmagan bo'lsa, shunga qarab g'olib guruh aniqlanadi. Natijalar aniqlanadi va tangachalar orqali baholanadi.

O'qituvchi: aziz o'quvchilar, o'tgan mavzuni takrorlab oldik. Endi uyga berilgan topshiriqlarni qay darajada bajarganingizni tekshirib olamiz. Kim aytadi, uyga berilgan topshiriq nima edi? (biror o'quvchi javob beradi)

O'qituvchi: bugun uyga berilgan topshiriqlarni o'zaro bir-biringiz tekshirasiz, qani bir-biringizni qay darajada xolis va haqqoniy baholaysiz va bilimingiz baholashga yetarlimikin, shuni aniqlaymiz! (o'quvchilar o'zaro daftarlarini almashtirib, tekshiradilar)

O'qituvchi: Endi, yangi mavzuga to'xtaymiz. Bugungi mavzuimiz " Sof va vazifadosh bog'lovchilar ".


1-topshiriq shartini o'qiymiz: gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning qanday vazifa bajarayotganini aniqlang?

2-topshiriq sharti ularning ma'nolarini izohlashga harakat qiling o'quvchilar topshiriqda keltirilgan gaplardagi ajratilgan so'zlarni izohlashadi.

Bunda yuklama mavzusi o'tilmaganligi sababli ikkinchi, uchinchi, to'rtinchi, beshinchi gaplarga o'quvchilar biroz qiynalishlari mumkin, o'qituvchi yordami kerak bo'ladi.

Qoida doskada mavzuga oid slaydda ko'rsatiladi. Doskada mavzuga oid ko'rgazmali plakatlar osilgan sof bog'lovchilar slaydda alohida yiriklashtirilib ko'rsatiladi.

O'qituvchi "Venn diagrammasi"dan foydalanib mavzuni doskada tushuntiradi.



O'qituvchi: o'quvchilar e'tibor beramiz, berilgan so'zlar: bilan so'zi aslida sof ko'makchi, ammo bog'lovchi vazifasini bajaradi xuddi opalaringiz onangizning

o'rnida ba'zan uning vazifalarini bajargani kabi. Ammo, opalarimiz, bari bir onamiz bo'la olmaydi, shundaymi? Bog'lovchilarda ham shunday ham, na...na, -u(-yu), -da grammatik shakllari aslida yuklama lekin ba'zan gapda bog'lovchi vazifasida keladi.

Balki so'zi ham shunday, aslida Modal so'z ammo bog'lovchi vazifasida keladi. Masalan, yuqoridagi gaplardan birida Kun ilishi bilan daraxtlar kurtak yoza boshladi gapida bilan so'zi qanday vazifada kelyapti?

O'quvchilar javob berishga harakat qilishadi.

To'g'ri bu yerda ko'makchi, chunki u tobe va hokimlik munosabatidagi so'zlarni bog'lagan. 6-gapda esa teng bog'lovchi vazifasini bajarmoqda.

Yana ikkinchi gapda: Uning esiga na sevgi, na istirohat keldi. Bu gapda na...na yuk inkor bog'lovchisi vazifasida kelyapti. Esingizda bo'lsinki, na...na qachonki gapdagi kesim inkor shaklida bo'lsagina inkor yuklamasi bo'lib keladi. Gapning kesimi tasdiq shaklida turibdimi, demak u bog'lovchi. 3-gapda: Akam ham mukofot oldi. Bu yerda ham so'zi akam so'zini kuchaytirib aytish uchun xizmat qilmoqda. Shuning uchun ham bu yerda kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi.

4-gapda ham shunday: Sen ham, men ham shunga ishonibmiz-a? Agarda shu gapda sen ham men ishonibmiz bo'lar edi, u holda ham so'zi bog'lovchi vazifasini bajarar edi. Bu so'zni boshqa birikturuv bog'lovchilari bilan almashtirib ham aniqlasa bo'ladi tushunarlimi?

Ana endi mustahkamlash mashqlariga o'tamiz.

191-mashqni o'quvchilar doskada va daftarda bajarishadi. Bunda sinfda past o'zlashtiruvchilar doskaga chiqib, qolganlar daftarda bajarishadi.

Keyin o'qituvchi mashqdagi to'g'ri javoblarni aytadi o'quvchilarni o'zaro bir-birlarini tekshiradilar.

192-mashqni ikkala guruh “ Kim chaqqon “ o’yini asosida umumiy holatda bajaradilar.

O’qituvchi g’olibni aniqlashda to’g’ri va to’liq bajarilganligiga, yozuvga, imloviy xatolarning yo’qligiga ahamiyat berishi lozim.

Mashqlar bajarilgach, yig’ilgan ballar hisoblanadi va g’olib guruh aniqlanadi.

G’olib guruhga badiiy kitob sovg’a qilinadi.

Keyin uyga beriladigan topshiriqlar e’lon qilinadi.

Shu bilan bir soatga mo’ljallangan qirq besh daqiqalik darsga yakun yasaladi.

II.3. Yuklamalarni umumta’lim tizimida interfaol usullarda o’tish

Yuklamalar yordamchi so’zlar tizimida qiziqarli mavzu sanaladi. Dars jarayonida avvalo, o’quvchilarga uning so’zlarga qo’shimcha ma’no yuklash vazifasi tushuntiriladi. Mavzu tushuntirilgach, yuklama qatnashgan gaplar qiyosan tahlil etilsa ham samarali bo’ladi. Chunki o’quvchilar tahlil davomida yuklamalarning bog’lovchilardan farqlarini bilib oladi va nutqda qo’llanilishini chuqurroq anglaydi. 7-sinf darsligida yuklamalarning ma’no guruhlari alohida mavzu sifatida berilgan. Ammo mavzulardagi mashqlar soddaroq bo’lganligi tufayli dars jarayonida qo’shimcha topshiriqlar va o’yinlar berilsa, dars sifati oshadi. Quyida keltirilgan namunamizda interfaol usullardan foydalanib yuklamalar mavzusini o’tishni ko’rib o’tamiz.

Fan: Ona tili.

Sinf: 7

Mavzu:Kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi.

Vaqt: 45 daqiqa.

DTS asosida o’quvchilarning o’zlashtirishi lozim bo’lgan BKMLari:

– Kuchaytiruv-ta’kid yuklamasi haqida ma’lumot;

- Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasining qoidasi
- Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasining vazifasiga ko'ra turlari;
- Kuchaytiruv-ta'kid yuklamasi bilan bog'liq so'z birikmalari va gaplar tuzish.

Dars shiori: ona tili fanlar ichra a'lodir.

Darsdan ko'zlangan maqsad:

- a) Ilmiy maqsad: kuchaytiruv-takid yuklamalari va uning ma'nolari haqida ma'lumot.
- b) Tarbiyaviy maqsad: qanoatlilik va rostgo'ylik fazilatlarida tarbiyalash.
- c) Rivojlantiruvchi maqsad: o'quvchilarning erkin fikrlash qobiliyatini rivojlantirish.

Darsda foydalaniladigan jihozlar: Xona , jadval , kompyuter, videoprojektor, mavzu asosidagi slaydlar,

Dars usuli: savol-javob , musobbaqa

Darsning borishi:

- I. Tashkiliy qism.
 - a) salomlashish.
 - b) davomatni aniqlash.
 - c) kun yangiliklari bilan tanishish.
 - d) guruhlariga bo'lish.

II. O'tgan mavzuni so'rash.

Men o'tgan mavzu bo'yicha guruhlariga yordamchi so'z turkumlarining “ Idrok xotirasi” ustida ishlashni aytaman. Bunda guruhdagi o'quvchilar o'tilgan mavzular yuzasidan tushunganlarini yoddan aytib berishlari lozim.

1-guruhga Ko'makchi

2-guruhga Bog'lovchi

3-guruhga Yuklamalarning “ Idrok xaritasi”

Guruhlar ishini baholayman.

III. Yangi mavzu bayoni.

Reja:

1. Yuklama haqida ma'lumot.
2. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari.

3. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarining ma'nolari.
4. Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalarining imlosi.

So'z yoki gaplarga so'roq ta'kid, ayirish, gumon, o'xshatish, inkor kabi ma'nolarni yuklovchi so'z va qo'shimchalarga yuklamalar deyiladi.

Yuklamalarga: 1) axir, hatto, faqat, ham, xuddi, go'yo, go'yoki, hech, sira, nahotki so'zlari.

2) -mi, -chi, -gina(-kina, -qina), -dir, -u, -yu, -da, -a, -na..., singari qo'shimchalar kiradi.

Ularning birinchi guruhi so'z yuklamalar, ikkinchi qismi esa qo'shimcha yuklamalar hisoblanadi.

Yuklamalarning ma'no turlari	Yuklamalar
So'roq tajub yuklamalari	-mi, -chi, -a, -ya.
Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari	hatto, -ku, ham, nahotki, -yu, -da, oq, yoq.
Ayiruv-ta'kid yuklamalari	faqat, -gina(-kina, -qina)
O'xshatish-qiyoslash yuklamalari	go'yo, go'yoki, xuddi, naq
Gumon yuklamasi	-dir
Inkor yuklamasi	hech, -sira, na...

“Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari” mavzusi qoidasini o'qib, tushuntirishdan oldin berilgan topshiriq bilan ishlash lozim, chunki bu mashqlarni bajarish davomida o'quvchi o'zi xulosa chiqarib, keyin qoida tushunarliroq bo'ladi. Mavzuga oid slaydlar ,albatta, ekranda namoyish qilingan holatda bo'ladi.

Gapning ma'lum bir bo'lagi yoki butun gap ma'nosini kuchaytirib, ta'kidlab keluvchi yuklamalar kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari hisoblanadi.

Hatto, hattoki, ham, g'irt singari so'zlar, -ni, -u, -yu, -da, -oq, -yoq qo'shimchalari kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridir. Yozuvda -ku, -u, -yu, -da yuklamalari chiziqcha bilan -oq, -yoq yuklamasi esa qo'shib yoziladi.

Men yangi mavzuni " Klaster " usulda o'quvchilarga tushuntiraman.

IV. Mustahkamlash.

1. savol-javob asosida:

- a) Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalari gap ma'zmuniga qanday ma'no yuklaydi?
- b) Misollar bilan tushintiring.
- c) Kuchaytiruv-ta'kid yuklamalaridan qaysilari qo'shimch shaklida?
- d) Qaysilari so'z shaklida?
- e) ...

2.Mashqlar bajarish.

a) 244-mashqni bajarish.

b)145-mashqni bajarish.

3. 246-mashqni bajarish.

Men yana mustahkamlashda " Tushunchalar tahlili " metodidan foydalanaman.

O'quvchilarga topshiriq qilib beraman.

N.	Tushunchalar	Tahlil
1.	Qaratqich	Qaratqich kelishigi shaklidagi so'z.
2.	Yuklamalar	So'z yoki gaplarga so'roq, ta'kid, gumon, o'zlashtirish, inkor ma'nolarini yuklovchi.
3.	So'roq-taajjub yuklama	Gapning mazmuniga so'roq-taajjub ma'nosini yuklovchi yordamchi so'z.
4.	Yordamchi so'z	Atash ma'nosiga ega bo'lmagan, so'roqqa javob bo'lmagan, gap bo'lagi mos kelmaydi.

V. Baholash.

VI. Uyga vazifa. 247-mashq. Qoidalarni yod olish.

Yuqorida keltirilgan misollar nisbiy, albatta. Chunki darsni bundan-da qiziqarli o'tish, turli metodlarni yaratish har bir o'qituvchining ijodkorligi va pedagogik mahoratiga ham bog'liq. Darsni turli o'yinlar va interfaol metodlar orqali tashkil etish o'quvchilarga hissiy ta'sir qilish va bu orqali hodisalarni sintez qilishni ta'minlaydi. Bundan tashqari bu metodlar o'quvchilarni faollikka chorlash bilan birga, tasavvurlarini boyitadi. O'yin-musobaqa darslarda sofi raqobat ruhini shakllantiradi, ijodiy tafakkurlarini kengaytiradi. Zero, bunday omillar hozirda ona tili ta'limi maqsadining asosini tashkil etadi.

III BOB

Yordamchi soʻzlarni oʻrta maxsus taʼlim tizimida oʻtish metodikasi

III.1. Koʻmakchilarni oʻtish metodikasi

Oʻquvchilarga koʻmakchilar va ularning maʼno turlari haqida maʼlumot berishda turli interfaol metodlardan foydalanishimiz mumkin. Oʻrta maxsus taʼlim oʻquvchilari maktab oʻquvchilariga nisbatan saviyasi balandroq boʻlganligi tufayli dars jarayonida ham oʻqituvchi murakkabroq metodlardan foydalanishi kerak. Zero, akademik litsey darsliklarida yordamchi soʻzlar haqida chuqurroq maʼlumot berilib, ularning uslubiy xususiyatlari bilan bogʻliq jihatlari ham yoritilgan.

Oʻrta maxsus taʼlimda yordamchi soʻzlarni oʻtishda adabiyot darslari bilan bogʻlansa, maqsadga muvofiq boʻlardi. Bunda oʻqituvchidan, albatta, ijodkorlik va oʻquvchilardan faollik talab etiladi. Bundan tashqari darsda taqdimotlardan foydalanish oʻquvchilarning badiiy-estetik qarashlarini boyitishga xizmat qiladi. Masalan: darsni tashkil qilishda “Koʻmakchi”, “Bogʻlovchi”, “Yuklama” mavzularini oʻrganish jarayonida oʻquvchilarni guruhlariga boʻlib, Alisher Navoiyning “Mehr va Suhayl”, “Mahbub ul-qulub”, “Rostlik taʼrifida” asarlarida (adabiyot darsliklarida berilgan parchalar asosida) yordamchi soʻzlarning qoʻllanilishi boʻyicha vazifalar beriladi. Xususan, 1-guruh oʻquvchilariga bogʻlovchilarning qoʻllanilishi, 2-guruh oʻquvchilariga koʻmakchilarning qoʻllanilishi, 3-guruh oʻquvchilariga yuklamalarning qoʻllanilishini oʻrganib, oʻz kuzatishlarini taqdimot sifatida tayyorlash topshiriladi. Dastlab, oʻqituvchi Navoiyning ijodi haqida maʼlumotlar beradi. Soʻng, guruh sardorlari oʻz taqdimotlarini quyidagicha sharhlashlari mumkin. Oʻquvchilardan biri “Mahbub ul-qulub”ning nasriy shaklda saʼj usulida yozilganligini va unda biriktiruv, zidlov va hart boʻlovchilari faol qatnashganini, ayiruv, sabab, maqsad bogʻlovchilari deyarli qatnashmaganini aytib oʻtadi. Va biriktiruv bogʻlovchisi hozirgi tilimizda boʻlgani kabi uyushiq

bo'laklarni, qo'shma gap qismlarini, ba'zi o'rinlarda esa ham uyushiq bo'laklarni, ham qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplarni bog'langani ta'kidlanadi. Masalan: Xaloyiqdin kishiga mujibi ta'zim va e'zoz va akobirdin asog'irg'a boisi iltifot va imtiyoz. Bu yerda va bog'lovchisi uyushiq bo'laklarini bog'lashga xizmat qilgan. Arslon ishi sayd urib sibo'ni to'yg'ormoq va sichqon varzishi diram o'g'irlab, tugunni axtarmoq. Ushbu gapda va bog'lovchisi qo'shma gap qismlarini bog'lagan. Keyingi o'quvchi "Mehr va Suhayl" hikoyatida biriltiruv bog'lovchisining qo'llanilishiga oid o'rinlarni aytib o'tadi. Masalan: ushbu asarda va bog'lovchisi o'rnida asosan – u, -yu vazifadosh bog'lovchisi ishlatilgani aytiladi. Hikoyatdagi 44-baytda bi holatni ko'rish mumkin:

Anda bir shox hokim-u voliy,

Mulki ma'mur-u himmati oliy.

Keyingi o'quvchi "Rostlik ta'rifida" maqolatida ham va bog'lovchisi vazifasini –u, -yu yuklamalari bajarib uyushiq bo'laklarni bog'lab kelganini aytib, misollar keltiradi:

Egri-yu tuz vasfi muhaqqaqdurur,

Botil erur egri-yu tuz haqdurur.

Shu tariqa guruh o'quvchilari asar matnidan yordamchi so'zlarning qo'llanilishiga oid o'rinlarni sanab, bog'lovchi, ko'makchi va yuklamalarning eski o'zbek tilida, xususan, Alisher Navoiy asarlarida qo'llanilishini mustaqil ravishda o'rganib, fikrlarini bayon etadilar.

Akademik litseylarda yordamchi so'zlarni o'tishda turli muammoli, o'yinli va rivojlantiruvchi texnologiyalardan foydalanish mumkin. Masalan, "Ko'makchi"larni o'tishda, avvalo, nazariy ma'lumotlar berilgach, "Nilufar guli" metodidan foydalanilsa, mavzu mohiyati o'quvchilarga chuqurroq anglanishiga yordam beradi. Ushbu metod ma'lum mavzuni tasniflash, ma'noviy guruhlarga bo'lib tushuntirishda qulaydir. Bunda "Nilufar guli"

markazida ko'makchi so'zi yoziladi. Atrofida esa uning guruhlarga bo'linishi, har bir guruh yana kichik ma'noviy guruhlarga bo'linishi o'quvchilarga mavzu mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Bundan tashqari ko'makchilar mavzusini o'tishda "Ko'makchi krossvordlarda" usulidan foydalanish mumkin. Bunda sinf guruhlarga bo'linib, har bir guruhga boshqotirma beriladi. Masalan, savollar quyidagicha bo'lishi mumkin: Va bog'lovchisi kabi vazifa bajaradigan ko'makchi; yo'nalish ma'nosini bildiruvchi ko'makchi; chegara ma'nosini bildiruvchi ko'makchi; -dek, -day qo'shimchalari bilan umumiy vazifa bajaradigan sof ko'makchi. O'quvchilar boshqotirmaning yechadilar va javoblarni izohlaydilar.

Ma'lumki, o'quvchilar ongida sof ko'makchilar yuzasidan malaka hosil qilish vazifadosh ko'makchilarni eslab qolishga qaraganda bir qator oson kechadi. Ammo vazifadosh ko'makchilarning mohiyatini bilish uchun alohida mashqlar zarur. Dars davomida o'qituvchi ko'makchi vazifasida kela oladigan so'zlarning mustaqil ma'noli so'z hamda ko'makchi ma'nosida qo'llangan holatlari aks etgan gaplarni qiyoslab o'rgatishi mumkin. Masalan, ichida, tashqari, boshqa, keyin, qaraganda, ko'ra so'zlari ishtirokida gaplar tuzish, birinchi gapda ular mustaqil so'z ma'nosida, ikkinchi gapda ko'makchi vazifasida kelishi topshirig'i berilishi mumkin. bunday ko'makchilar qatorini yana davom ettirish mumkin. Masalan:

Mustaqil so'z ma'nosida	Ko'makchi vazifasida
Soat televizor ustida turibdi.	Televizor ustida tortishib qolishdi.
Quti ichida nimadir bor edi.	Shu hafta ichida bandman.
Tashqarida qahraton qish hukmron.	Sendan tashqari yana kimlar bor?

Mustaqil so'z ma'nosida	Ko'makchi vazifasida
Avval o'yla, keyin so'yla.	Akang kelganidan keyin ketasan.
Har gal unga unga qaraganimda	Uning bo'y-basti senga qaraganda

qalbimni ajib quvonch egallaydi.	tikroq.
Mustaqil so'z ma'nosida	Ko'makchi vazifasida
Endi ularning oilasi bo'lak.	Sendan bo'lak kimim bor?
Qizlarning qoshida o'smasi bo'lsa.	Yomonlar qoshida yalinma, o'g'lon!
Uyimiz oldida yangi mashina kelib to'ztadi.	Donolar oldida doim eshitguvchi bo'l.

Shu tariqa o'quvchilarga vazifadosh ko'makchilarning mustaqil ma'noda qo'llanilishini va ko'makchi vazifasida kelishini tushuntirish mumkin.

III.2. Bog'lovchilarni o'rta maxsus ta'lim izimida interfaol usullarda o'tish

Akdemik litsey darsliklarida mashqlar nisbatan soddaroq bo'lganligi uchun o'qituvchi qo'shimcha topqshiriqlar asosida darsni tashkil qilsa, yanada samaraliroq bo'lardi. Masalan, bog'lovchilar mavzusini o'tishda "Eslab qol" o'yinidan foydalanish o'quvchilarni hushyorlikka chorlaydi. Bunda magnit tasmasi yoki video-proyektor orqali o'quvchilarga ma'lum bir matn eshtiriladi. Matn, albatta, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lishi kerak. Chunki dars davomida ham ta'limiy maqsad, ham tarbiyaviy maqsadga erishish muhim sanaladi (matn Vatan yoki ona haqida bo'lib, unda bog'lovchilarning barcha turlari qatnashgan bo'lishi zarur). O'quvchilar bog'lovchilarning barcha turlarini matnni eshtish orqali yozib oladilar va jadval asosida ma'noviy guruhlariga ajratib chiqadilar. Bu metoddan mustahkamlash darsida foydalansa ham bo'ladi. Bundan tashqari bog'lovchilar mavzusini o'tishda "Qora quti" metodidan foydalanilsa, dars juda qiziqarli tashkil etiladi. Bu o'yinning mohiyati sirliligida. Chunki qora rang boshqa ranglarga nisbatan sirli sanaladi. Duskaga "Qora quti" shaklidagi chizma chiziladi. Ta'kidlash joiz, ushbu o'yin dars boshlanishida mavzu tushuntirilishidan oldin olib boriladi. "Qora quti" ichiga bog'lovchilar yoziladi. Tayanch tushunchlar kabi yozilgach, o'quvchilar har bir bog'lovchiga ta'rif yozadilar. Hayotiy misollar asosida gaplar tuzadilar. So'ng o'quvchilarning yozganlari izohlaniladi. Shu tariqa

yangi mavzu o'quvchilar tomonidan anglangach, o'qituvchi tomonidan mavzu to'ldiriladi.

Xullas, bog'lovchi mavzusini o'tishda o'qituvchidan e'tiborliroq bo'lish kerakligini unutmasligimiz kerak.

III. 3. Yuklamalarni o'rta maxsus ta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish

Yuklamalar mavzisini o'tishda "Savatchalar" metodidan foydalanish darsning qiziqarliligini ta'minlaydi. Bunda yuklamalarning har bir ma'no turiga alohida savatcha ajratiladi va har bir ma'no guruhining nomi yozib chiqiladi. Daraxt surati tushirilgan chizma doskaga osiladi va unga yuklamalar yozilgan olmacha shaklidagi qog'ozlar yopishtirib chiqiladi. O'quvchilar ketma-ket doskaga chiqib, istalgan olmachani olib tegishli savatchaga joylashtirishi kerak bo'ladi. Masalan: - mi yuklamasi so'roq va taajjub ma'no guruhiga tegishli savatchaga joylashtiriladi. Shu tariqa o'quvchilar har bir yuklamani o'ziga tegishli savatchaga joylashtiradilar. Bu o'yin o'quvchilardan chaqqonlikni va ziyraklikni talab etadi. Bundan tashqari, yuklamalarni o'rganishda va bilimlarni mustahkamlashda turli xil o'yinlardan foydalanish mumkin. Bu o'qituvchining ijodkorligiga bog'liq.

Xorijiy hamda hamdo'stlik mamlakatlarida amaliyotga muvaffaqiyatli tatbiq etilayotgan ta'lim-tarbiya berishni interfaol metodlari orqali dars o'tish o'zining samarasini bermoqda. Ushbu metodlar chet el texnologiyasidan olingan bo'lib, o'rganilib, qayta ishlanib e'tiborimizga havola etilmoqda. Interfaol metodlarni qo'llab dars o'tish natijasida o'quvchilarga har tomonlama ilmiy-nazariy bilimlarni mustaqil egallash, bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish va shu asosida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashlarini tarkib toptirish, faolligini oshirish, ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro hamkorligini ta'minlash va nihoyat yakuniy natijalarni kafolatlash maqsadlarini amalga oshiradi. O'zbekistonning porloq istiqboli barcha fuqarolarning, shuningdek, umumxalq, umummilliy faoliyatiga aylanadi va o'z maqsadi,

vazifalari jihatidan milliy g`oya, istiqlol ruhini har bir dars va tarbiya bo`g`iniga singdirish muhim omillardan biriga aylanadi. “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning milliy g`oyasini shakllantirishdagi roli ham beqiyosdir.[;55] Milliy dasturning asosiy maqsadi – barkamol shaxsni shakllantirishdir. Ongli ravishda jamiyatning ijtimoiy-siyosiy turmushga faol qatnashish layoqatiga ega bo`lgan, mamlakat taqdiri uchun mas`ul bo`lgan shaxsni tarbiyalash “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”ning ustuvor jihatidir.

Demak, yuklamalarni litsey o`quvchilariga o`tish jarayonida ularning matndagi ifodasiga, uslubiy xususiyatlariga alohida ahamiyat qaratish kerak bo`ladi.

Umumiy xulosa

Yordamchi so'zlar til taraqqiyotining nisbatan keyingi davrida vujudga kelgan. Ular so'z, gaplarni o'zaro teng va tobe munosabatda bog'lash, so'z hamda gaplarga qo'shimcha ma'no kiritish uchun qo'llanadi.

Yordamchi so'zlarning lingvistik tabiati bo'yicha bir qator ishlar amalga oshirilgan, biroq ularni ta'lim tizimida o'tish masalasi borasidagi tadqiqotlar oz. Shu nuqtayi nazardan bizning ishimiz nisbatan dolzarblik kasb etadi.

Yordamchi so'zlar va ular bilan bog'liq hodisalarni o'quvchi-yoshlarga o'rgatish umumiy o'rta ta'lim tizimida 5-sinfdan boshlanadi. Ta'lim jarayonining bu bosqichida yordamchi so'zlarning har biriga bir soatdan dars mashg'uloti ajratilgan bo'lib, yordamchi so'zlar bo'yicha dastlabki bilimlar berilgan. Darslikda yordamchi so'zlarning nutqimizda qo'llanishi, ularning tabiati bo'yicha fikrlar bayon qilingan. Har bir topshiriq, mashq muayyan bir maqsad asosida tuzilganiga guvoh bo'lamiz.

Yordamchi so'zlar haqida nisbatan to'liq ma'lumot 7-sinf darsligida kuzatiladi. Biz oz tadqiqotimizda yordamchi so'zlarning darsliklaridagi ifodasi, ular bo'yicha aytilgan grammatik bilimlarni tahlilga tortdik. Darslikdagi ayrim bayonlarga munosabat bildirishga harakat qildik. Masalan, vazifadosh ko'makchilar mavzusida *bo'ylab*, *qosh*, *orqali* misollari keltirilganki, ularning matn tarkibida ko'makchi ham bo'la olishi haqida bayon yo'q. Aniqrog'i, bu misollarning vazifadosh ko'makchi bo'lishi munozarali. Yoki ergashtiruvchi bog'lovchilar nafaqat gaplarni, balki so'zlarni bog'lab kela olishi bo'yicha aytilgan bayonlarni tushunish qiyin. To'g'rirog'i, bu bo'yicha misollar umuman berilmagan. Bu ham darslikdagi ayrim ma'lumotlarning yetarli emasligidan dalolat beradi.

Kuzatishlar ko'rsatadiki, o'quvchilar o'z nutqida yordamchi so'zlardan nisbatan kam foydalanadilar. Masalan, *bilan*, *tomon*, *uchun* ko'makchilarini o'quvchi o'z nutqida ko'p qo'llaydi, biroq *sayin*, *singari*, *uzra*, *sari*, *qadar* kabi ko'makchilardan juda kam foydalanishiga guvoh bo'lamiz. Yuklamalardan *nahot*,

nahotki, go'yo, go'yoki, na ... na, naq kabilardan ham nisbatan kam foydalaniladi. Bu kabi nutqimizdagi nofaol so'zlarni faollashtirishda, ular bilan o'quvchi nutqini boyitib, nutq go'zalligini ta'minlashda o'qituvchidan ko'proq mas'uliyat talab etiladi.

O'rta maxsus ta'lim tizimi darsligida yordamchi so'zlarning har biriga bir soatdan vaqt ajratilganligiga guvoh bo'lamiz. Ta'lim tizimining bu bosqichida, asosan, yordamchilarning uslubiy imkoniyatlari, qo'llanishi bilan bog'liq masalalar, ishlatilish doirasining turli darajalari haqida so'z boradi.

Yordamchi vositalarning nisbatan to'liq ifodasi 7-sinf darsligida o'z aksini topgan. Unda yordamchi birliklarining grammatik tabiati, matndagi ma'no imkoniyatlari, sof hamda vazifadosh yordamchi so'zlar haqida grammatik bilimlar silsilasi keltirilgan.

Yordamchi so'zlarni o'tish davomida turli interfaol usullar, noan'anaviy dars ko'rinishlaridan foydalanish yuqori samara berishi aniqlandi. Yordamchi birliklarning keng ma'no tabiati, xususan, uslubiy tabiati, ishlatilish doirasining u yoki bu darajadagi imkoniyatlari litsey darsligi va dasturida berilgan. Ta'lim tizimining bu bosqichida til hodisalarining qo'llanishidagi ifoda imkoniyatlariga qaratilgan ekan, demakki, o'rganish manbai bo'lgan yordamchi vositalarning o'rta-maxsus ta'lim tizimida o'tish ham, o'quvchilarga mazkur hodisa bo'yicha keng bilim berish, yordamchini o'z nutqida yetarlicha qo'llay olishga, ulardan kehg foydalanishga o'rgatish bir qator kuzatishlarga zarurat sezadi.

Xullas, yordamchi birliklar – so'z va qo'shimcha shakllarni ta'lim tizimida o'tish ona tili ta'limi maqsadi va mazmunining bir bo'lagi sanaladi. Bunda o'qituvchidan o'ziga xos faollik, izlanish, bilim va tadbirkorlik talab etiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Normativ-huquqiy hujjatlar

1. Каримов И. А. Ўзбекистон буюк келажак сари. Тошкент: Ўзбекистон, 1998. 686 б.
2. Каримов И. А. Юксак маънавият— енгилмас куч. Тошкент: Маънавият, 2008. 176 б.

II. Ilmiy risola, darslik va o'quv qo'llanmalar

3. Азизов О. Тилшуносликка кириш. Тошкент: Ўқитувчи, 1996. 176 б.
4. Asadov. T. Ona tili. Usuliy qo'llanma. Buxoro: "Buxoro", 2012, 86 б.
5. Bekova N. Interfaol usullar- dars samaradorligining asosiy omili. Usuliy qo'llanma. Toshkent: "Muharrir", 2010.
6. Йўлдошева Д. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури талаблари асосида таълим мақсадини белгилашнинг дидактик асослари. —Тошкент. "Фан" 2006. 83 б.
7. Маҳмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Синтаксис. Тошкент: Ўқитувчи. 1995. 166 б.
8. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Nabiyeva D., Mirzaahmedov A. Ona tli 7-sinf. Toshkent: Ma'naviyat. 2005.
9. Mahmudov N., Nurmonov A., Sobirov A., Qodirov V. Ona tli 5-sinf. Toshkent: Ma'naviyat. 2011.
10. Мирзаев М. Ҳозирги замон ўзбек тили. Машқлар тўплами. Тошкент, 1963. 143 б.

11. Нурмонов А., Шаҳобиддинова Ш., Искандарова Ш., Набиева Д. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. Морфология. Тошкент: Шарқ, 2001. 164 б.

12. Нурмонов А., Собироив А. Ҳозирги адабий ўзбек тили. Академик лицейларнинг 2-босқич талабалари учун дарслик. Тошкент: Шарқ, 2002.

13. Неъматов Х, ва б. Ўқувчилар сўз бойлигини ошириш. Тошкент: 2002.

14. Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili (darslik). Toshkent: Universitet, 2006. 464 b.

15. Турсунов У., Мухторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Олий ўқув юртлари филология факультетлари талабалари учун дарслик. Тошкент: Ўзбекистон, 1992. 339 б.

16. Шоабдурахмонов Ш ва б. Ҳозирги ўзбек адабий тили. I қисм. Педагогика институтларининг филология факультетлари учун дарслик. Тошкент: Ўқитувчи, 1980. 448 б.

17. Қиличев Э. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Бакалавр – ўзбек филологияси ихтисослиги учун қўлланма. Бухоро: 2005. –228 б.

18. Ғуломов А. Қобилова Б. Нутқ ўстириш машғулотлари. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 258 б.

19. Ғуломов А. Она тили дарсларида ўқув-билув фаолиятини активлаштириш. Ўқитувчилар учун методик қўлланма. - Тошкент: Ўқитувчи, 1987. – 155 б.

20. Ҳозирги замон ўзбек адабий тили. Ф.Камол таҳрири остида. Тошкент: Фан, 1957. 470 б.

21. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Фонетика, лексикология, морфология. Ғ.А. Абдурахмоновнинг умумий таҳрири остида. Тошкент: Фан, 1966, 392 б.

22. Ўзбек тили грамматикаси. I том. Морфология. - Тошкент: Фан, 1975. – 612 б.

III. Lug'atlar

23. Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 томли. Тошкент: Ўзб. Мил. Энцикл., 2006–2008.

24. Ҳожиёв А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли луғати. Тошкент: Ўқитувчи, 1974. 307 б.

IV. Ilmiy maqolalar

25. Маҳмудов Н. Ўзбек тилшунослигининг тараққиёти // Ўзбек тили ва адабиёти. 2001.4-сон. 5–7-бетлар.

26. Majidova S. “Yordamchi so'zlar” mavzusini mustahkamlashda Alisher Navoiy asarlaridan foydalanish // Til va adabiyot ta'limi. 2015-yil, 1-son. –16-18-betlar.

27. Muqumova D. Ko'makchilar mavzusini mustahkamlash // Til va adabiyot ta'limi, 2016-yil, 2-son. –25-27-betlar

28. Оразов М. “Олд” кўмакчи отининг синонимикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1970. – 6-сон. – 66–69-бетлар.

29. Рустамов Т. *Коби* кўмакчиси // Ўзбек тили ва адабиёти. 1977, 4-сон. – 30–33-бетлар.

30. Рустамов Т. *Ичра* кўмакчиси тарихидан // Ўзбек тили ва адабиёти. 1984, 5-сон. –56–67-бетлар.

31. Rahmonova D. Ko'makchilarning ma'no turlari va ularning qo'llanilishi // Til va adabiyot ta'limi. 2015-yil, 12-son. –10-12-betlar.

32. Yo'ldosheva D. “Yordamchi so'zlar” mavzusini o'rganish // Til va adabiyot ta'limi, 2012-yil, 12-son. –14-18-betlar.

V. Dissertatsiya va dissertatsiya avtoreferatlari

34. Пардаев А.Б. Ҳозирги ўзбек тилида кўмакчиларнинг функционал-стилистик хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ...дис. автореф. – Самарқанд: 2005. – 25 б.

35. Пардаев З.Н. Ўзбек тилида сифатларнинг семантик-услубий хусусиятлари. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. – Самарқанд: 2004. – 22 б.

36. Турдибоев Т.Ҳ. Ўзбек тилида ёрдамчи сўзлар конверсияси. Филол. фанлари номз. ... дис. автореф. –Тошкент: 1996. –21 б.

VI. Internet sahifalari

37. www.onatili.uz

38. www.tilshunoslik.uz

39. www.o'qituvchi.uz

40. www.ziynet.uz

Mundarija

Kirish. Ishning umumiy tavsifi.....	
I BOB O'zbek tilida yordamchi so'zlar, ularning manbalardagi ifodasi	
I.1 So'z turkumlari tizimida yordamchi so'zlar.....	
I.2. Umumiy o'rta ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi.....	
I.3.O'rta maxsus ta'lim dastur va darsliklarida yordamchi so'zlar ifodasi.....	
II bobYordamchi so'zlarni o'rta umumta'lim tizimida o'tish metodikasi.....	
II.1. Ko'makchilarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish.....	
II.2. Bog'lovchilarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish.....	
II.3. Yuklamalarni umumta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish	
III bob. Yordamchi so'zlarni o'rta maxsus ta'lim tizimida o'tish metodikasi.....	
III.1. Ko'makchilarni o'rta maxsus ta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish.....	
III.2. Bog'lovchilarni o'rta maxsus ta'lim izimida interfaol usullarda o'tish.....	
III.3. Yuklamalarni o'rta maxsus ta'lim tizimida interfaol usullarda o'tish.....	
Xulosa.....	
Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	

